

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**Mavzu: O'ZBEK NUTQI STRITIFIKATSIYASI
MUAMMOLARI**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajardi: Yoqubova S.

Ilmiy rahbar: dots. Aliqulov Z.

Malakaviy bitiruv ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2011–yil 20-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayonnomasi №____)

Kafedra mudiri:

prof.A.Abdusaidov

Malaviy bitiriv ishi YaDAKning 2011-yil ----- iyundagi majlisidahimoya
qilindi va ----- foizga baholandi (bayonnoma № ____)

YaDAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND - 2012

Mavzu: O'zbek nutqi stritifikatsiyasi muammolari
(O'.Xoshimov asarlari misolida)

Kirish.

Asosiy qism:

I- bob. Nutqiy muloqat tizimi.

II- bob. Nutq stritifikatsiyasi.

(Nutqiy muloqatning tarkibiy qismi, tashqi va ichki omillar)

Xulosa.

Adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

“Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi” jumlasida tilning ijtimoiy mohiyati, uning vazifasi to’la o’z ifodasini topganligi barchaga ayondir. Til oddiy aloqa vositasi bo’lmasdan, balki kishilarning eng muhim aloqa vositasi hamdir. Darhaqiqat, kishilar o’zaro aloqada turli vositalardan foydalanadilar. Ammo bular ichida til eng muhim vositadir. Til faqat kishilargagina xos, u faqat kishilar aloqasi uchun xizmat qiladi.

Tilning belgilari uni aloqaning boshqa vositalardan farqlash, tilni ijtimoiy xodisa sifatida xarakterlash imkonini beradi. Umuman, til kishilik jamiyatida aloqaning eng muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmushi va mehnat faoliyatida tildan keng va har tamonlama foydalanib kelayotgan barcha a’zolari bilan uzviy aloqador. Tilning jamiyatdagi bu vazifasi uning jamiyat, kishi ongi va fikrlash qobiliyati bilan aloqasini aniqlamay turib, til sistemasi, uning birliklari va kategoriyalarini chuqur anglab bo’lmaydi.

Kishilar o’zaro aloqada o’z fikrlarini, istaklarini sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir-birlariga ta’sir qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ vazifasini tashkil qiladi. Bu tilning asosiy ijtimoiy vazifasidir. Bundan tashqari, til eksprissiv vazifasi deyiladi. Axborot, sezgi va holat, xohish ifoda qilish birgalikda tilning eksprissivli vazifasiga kiradi. Bunda tilning turli vositalaridan, ya’ni modal so’zlar, ritorik so’roqlar, gaplarda so’z tarkibining o’zgarilishi hamda verbal va noverbal vositalardan foydalaniladi.

O’z navbatida til faqat ayrim shaxslarning aloqa vositasi bo’lmay, millatlararo aloqa quroli, to’plangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir. Tilning bu vositasi uning akkumulyativ (lotincha *accumulare*-to’plash) funktsiyasi hisoblanadi. Bu gnesologik (bilish jarayoni) vazifasidir!

Tilning ijtimoiy vazifa bajarishida uning birliklari turlicha ishtirok qiladi. Bevosita aloqa jarayonida tilning nomunativ va pridikativ birliklaridan

foydalaniladi. Mustaqil so'zlar, sostavli nomlar, frazeologizmlar nominativ birlik hisoblansa, turli gap ko'rinishlari predikativ birlik hisoblanadi. Muloqat birliklaridan tashqari, til struktura birliklariga ham ega.

Til ijtimoiy hodisa bo'lib, u inson hayotida nihoyatda muhim o'rin egallaydigan hodisadir. Kishining butun hayoti til bilan bog'langan bo'lib, til yordamida kishilar o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, inson tili nihoyat darajada murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifatlarni o'ziga mujassamlashtirgan hodisadir.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan konkret-tarixiy norma sifatida jamiyat a'zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy aloqa vositasidir.

Tabiiyki, so'zlovchi insoniyat kollektivi tamonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Shu bilan bir qatorda, har-bir so'zlovchi ayniqsa yozuvchilar, shoirlar, olimlar o'zlarining nutq faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun o'z hissalarini qo'shadilar. Garchi nutq ayrim shaxslarning mahsuli bo'lsa-da ammo ayrim shaxslar o'zlaridan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan til normalaridan foydalanadilar. Til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan, unda xizmat qiladigan va har doim rivojlanib turadigan o'ziga xos ijtimoiy hodisadir.

Ma'lum bir axborotni tinglovchiga yetkazish uchun til tizimida mavjud bo'lgan bir necha qiymatli hodisalardan foydalanishda, nolisoniy omillar nutq sharoiti, vositasi muloqot jarayoni so'zlovchi va tinglovchining ruhiy xolati, bir-biriga munosabati, milliy-madaniy, yosh, jins kabi o'nlab omillar bilan bog'liq. Mana shuning uchun o'tgan asrning uchunchi choragida 60-70 yillarda lisoniy vositalar, xodisalar sirasi system-struktur tilshunoslik tadqiq tomoillari asosida aniqlanib, tugal tasniflangan asosiy e'tibor bu hodisa birliklarining nutqda qo'llanish va ulardan qay yo'sinda mumkun qadar samarali foydalanish yo'llariga,

boshqacha qilib aytganda, lisoniy birliklarni unumli, samarali qo'llash, kam kuch sarflab ko'p samara olish yo'llarini aniqlashga qaratildi.

Til birliklaridan foydalanish ko'p hollarda nolisoniy ijtimoiy-ruhiy (sotsial-psixik) tomonlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, tilni ijtimoiy xodisa sifatida o'rganuvchi sotsial tilshunoslikdan (ijtimoiy tilshunoslikdan) farqli o'laroq lisoniy birliklarning nutqda yashash shart-sharoitlarini o'rganuvchi maxsus fan lingvistikaning yangi sohasi sotsiolingvistika shakillandi.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazardan sotsiolingvistika quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

- 1) Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat, ya'ni jamiyat hayoti va rivojlanishida tilning roli va aksincha, tilning rivojlanishida jamiyatning ahamiyati.
- 2) Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi munosabati bilan bo'ladigan farqlar.

Sotsiolingvistika faqat tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari orasidagi munosabatlarni emas, balki falsafani, ijtimoiy psixologiya va etnografiyaga oid misollarni ham qamrab oladi.

Buning asosiy sabablari: a) jamiyatning ilmiy asoslangan til siyosati prinsplariga bo'lgan ehtiyoj; b) struktural tilshunoslikning faqat tilning ichki tuzulishini o'rganishga bo'lgan qiziqishdir.

Ma'lumki, tilning lug'ati mazkur tilda so'zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy, tushunarli bo'lgan umummillat toifasidagi so'zlardan tashqari, millatning ijtimoiy guruhlanishi bilan bog'langan bo'lishi ham tabiiy. Millatning ijtimoiy guruhlariga genetik jihatdan ayrim qabila va aholining hudud belgisiga ko'ra ajratilgan ayrim guruhlar bilan birga jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishiga, kasb-hunarga ko'ra ajratilgan aholi guruhlar ham kiradi.

Sotsial tabaqalar nutqidagi o'ziga xosliklar, guruhlardagi o'zaro muloqat xususiyatlari, turli guruhlar orasidagi aloqa vaqtida qanday so'zlar va grammatik vositalarni tanlashi tilning ishlatilishi turlarini paydo bo'lishiga olib keladi. Shu

bilan birga bunday o'zgarishlar so'zlashuvchilarning yoshiga, jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo'layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir.

Nutq uslubi tushunchasi-og'zaki va yozma nutq formalari bilan uzviy bog'liq. Bir nutq uslubi aloqa formalarining har ikkalasida ham ishlatilishi mumkin. Masalan, ilmiy uslub aloqaning yozma formasida ham, og'zaki formasida ham uchraydi.

So'zlashuv uslubi, odatda, kishilarning o'zaro og'zaki fikr almashuv munosabatlarida ishlatilsa ham, ammo undan yozma nutq aloqalarida, masalan, xat, kundalik, estalik kabilar ham foydalaniladi. Shuni aytish kerakki, uslublari aloqa formalarining ifoda vositalarini tanlashga bo'lgan ma'lum ta'sirini inkor qilmagani holda, hamma vaqt o'zlarining asosiy belgi-xususiyatlarini saqlaydi. Masalan, yozma aloqa formasida so'zlarni e'tibor bilan tanlash va nutqni Grammatik jihatdan aniq shakillantirish tufayli fikrni yana ham ravshan va tushunarli ifolashga erishiladi.

Oddiy so'zlashuv uslubi uchun erkin muomala qilishi bilan xarakterlanadi. Unda so'zlashuv nutqiga xos emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Bu hol, ayniqsa, uning sentaktik qurilishida, lug'at boyligidan so'z tanlashda yaqqol ko'rinadi. Oddiy so'zlashuv uslubi tarkibiga soda tilga xos ementlarni, ya'ni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, Grammatik va leksik-fraziologik hodisalarini kiritish mumkin.

So'zlashuv tili o'z taraqqiyotining har bir bosqichida yangi so'z va iboralar hisobigaboyib boradi. Chunonchi, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to rivolyutsiyaga qadar oddiy so'zlashuv nutqida o'z ma'nosi va yasalishiga ko'ra juda xilma – xil ko'pgina yangi so'zlar vositasida yasalgan, ba'zilar esa rus tilidan kirgan bo'lib, talaffuzi va yozilishi jonli so'zlashuv nutqiga moslashtirilgan so'zlardir.

Rus tilining ta'sirida shoir va yozuvchilar ma'lum uslubiy maqsad taqozasi bilan individual nutqda ba'zi ruscha so'zlardan ham foydalanganligini kuzatish mumkin.

Masalan.

Qachon bo'lmagan gap qabul aylasin,
Muqarrar degaykim pechat boylasin.
Topib mardikorini – siychas yuring,
Pojalista, - der erdi – endi yuring.

(Muqumiy “Moskovchi boy ta’rifida”).

Ko’r bo’lmasa pul oqib kelurmi,
Bu badshakl, slepoy durakka?
O’rischa maqtab Zavqiy xorosho,
Jo’von, pir, marlu zan manonli ishlur.¹

(Zavqiy)

Mustaqillikdan buyon o’tgan davr mobaynida millatlararo, mamlakatlararo munosabatlarning rivojlanishi tufayli muloqat jarayonida xorijiy so’zlarning qo’llanilishi tobora ortib borayotganligini kuzatish mumkun:

- “Tauzen”, - dedi Saidboy hozirjavoblik bilan.
- Bir yo’la, tauzen dollor berib qo’yoqol, - dedim xonimchaga....
- Xau mach daz it kost, necha so’m turadi?
- Ten dollor.

Ten dollor emish! O’n dollorim bo’lsa senga yalinib o’tirarmidim. Magnitafon olib qo’yaqolsam bo’lmasmidi, ahmoq! Qarasam, xonimcha ko’ylakni qopchiqqa solib, qo’limga tutqazyapdi.

- No! no! –dedim, - ay lev no ten dollor. Menda ten dollor yo’q! (O’.Hoshimov “So’qqa bosh bevagina” 68).

Tabiiyki, tilning mavjudligi insonlarning so’zlash yoki yozish harakatlarini bojarishi bilan bog’liqdir. Bu harakatlarning bajarilish jarayonida lisoniy birliklar asl ma’nosidan tashqari, tasdqlash, buyurish, ogohlantirish, va’da berish kabi

¹ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. –Тошкент.: Ўқитувчи, 1982, 126-129-б.

mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir.

Nutqiy akt - ma'lum bir gapning aniq muloqat muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqat matniga nisbatan "boyitilishi", idrok etilishi natijasidir.

Albatta, ob'ektiv olamdagi barcha harakatlar insoniyat tomonidan o'zaro axborot almashinishi natijasida sodir etiladi, moddiy olamda ma'lum o'zgarishlar yuzaga keladi. Muvjudlikdagi barcha predmetlar, voqeiliklar ma'lum so'zlar bilan nomlanib, anashu semantik tuzilmalar nutqda so'zlovchi va tinglovchi tomonidan harakatga keltiriladi.

Bizni qurshab turgan ob'ektiv olamdagi barcha harakatlar tilda, aniqrog'i nutqda nutq ishtirokchilari faxmiy ta'savvuri boshqaruvida bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro muloqatda har bir nutqiy harakat ma'nolari biror maqsad uchun qaratilgan bo'ladi.

Yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqib xulosa qilib aytganda, globallashtiruv jarayonida mamlakatlararo, millatlararo munosabatlarning tobora kuchayishi natijasida muloqatga ehtiyoj ortib boradi.

Ijtimoiy taraqqiyot sur'atining jadallashib borishi tillarda o'z aksini topib, u muloqatga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tabiiyki, sotsial jamiyatda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar nutqda ham o'z aksini topadi va umumiy tilning rivoji bilan birga nutqning ham rivojini ta'minlaydi. Ammo nutqning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Darhaqiqat, jamiyat, jamiyatdagi kishilarning o'zaro muloqatga kirishishi, kommunikatsiyasini yo'lga qo'yishi nutq rivoji uchun eng asosiy omil hisoblanadi.

Zero, inson va nutq mohiyatan yaxlit butunlik bo'lgan nutq faoliyatining ikki tomonidir va ularni bir-biridan ajratish also mumkin emas. Ularga dialektik falsafaning bir tomonidan umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, zaruriyat,

majburiyat, ikkinchi tamonidan- yakkalik, xususiylik, hodisa, voqeylik, oqibat, tasodif, erkinlik kabi kategoriyalari orasidagi munosabatlar nuqtai nazaridangina yondashish mumkun. Bir so'z bilan aytganda, nutqni jarayon sifatida faqat muloqat so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro diskurs-fikr almashish sifatida tadqiq etishi taqozo etadi.

I. Bob. Nutqiy muloqatning xususiyatlari.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuz berayotgan globallashuv jarayonida, millatlararo va mamlakatlararo munosabatlar hamda bozor iqtisodiyoti tamoillari asosida sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar davrida kishilar o'rtasidagi kommunikatsiya turlari son va hajm jihatdan kengayib bormoqda. O'ziga xos kummmunikatsiya sohalari vujudga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida til strukturasi variantlarining ma'lum bir ijtimoiy sotsiol guruhlar sotsiumga qo'llanishi natijasida ushbu variantlarning shu sotsium uchun me'yor vazifasini o'tashini taqoza etadi.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida amalgam oshayotgan demokratik jarayonlar kishilar o'rtasida turli muloqat-muomala sohaslarini vujudga keltiradi. Bu hol bir qancha sotsial guruh sotsiumlarni shakillantiradi. Ayni chog'da aynan shu sohalarga oid so'z va tushunchalar tilda, ya'ni nutqda paydo bo'ladi.

- Ayol boshim bilan biznes qilyapman. "Chelnok"ka boryapman. Stambulga, Dubayga, Yujni Koreyaga... osonmi? Har qadamda "ment!", "dolya" cho'zmasang hammasini obqo'yadi. (O'.Hoshimov. "So'qqa bosh bevagina". Toshkent "sharq" 2008, 21 bet).

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan nutq sotsiologiyasi nihoyatda muhum bo'lib, ziyoli va oddiy kishiningnutqi, o'zbek adabiy tili va shevalari, nutqning kasb-kor, millat, egallab turgan mavqie, yosh, jins, nuqtai nazaridan tahlil etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida o'zbek adabiy tili so'zlashuv uslubi ikki asosiy turga ajratiladi: adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy normalariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan harakterlanadi.

Uning tili sodda: jaryon va sheva elementlaridan xolidir. Adabiy so'zlashuv uslubi o'z adabiy tilini bilgan kishilar uchun tanish va ma'lum bo'lgan asosiy uslub hisoblanadi. Tilning adabiy so'zlashuv uslubi kundalik aloqa-aralashuv uchun xizmat qiladi: maktablarda va o'quv yurtlarida, unda badiiy adabiyotda juda keng

foydalaniladi. Qisqasi, adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining eng keng va universal turidir.

Oddiy so'zlashuv uslubi uchun esa betakalluflik bilan erkin muomala-alloqa qilish harakterli xususiyatdir. Unda so'zlashuv nutqiga xos emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Bu hol, ayniqsa, uning sintaktik qurilishida, lug'at boyligidan so'z tanlashidan yaqqol ko'rinadi.

Oddiy so'zlashuv uslubi tarkibiga soda tilga xos elementlarni, ya'ni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, Grammatik va leksik frazeologik hodisalarni kiritish mumkin.

So'zlashuv uslubining bu ikki turi ozining bir qator grammatik, leksik-fraziologik va fonetik xususiyatlariga ega. Haqiqatdan ham muloqat jarayonida o'zbek tilining adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik va leksik freziologik xodisalarini kuzatish mumkun.

- Men Buxoroning Romitan rayonidanman, otim Boqayev Po'lat o'zim maktabda ishlayman. Shunaychukun panjshanbe kuni xotinim bilan mashinaga Boxoroda boriyb edim. Ketopsak, lotereya sotopti. Sotuvchi o'zimning sobiq o'quvchim ekan. "Domullo Baqoyev", dedi "manginaning lotereyasidan birtagina oling, oxe!" – dedi. Xotinim aytdi: "kapmatta odam latereyani nima qilasiz, undan ko'ra bachalarga banan-manan olaylik", - dedi. "Xay, birta latereya olsak olibmizda", deb shunday o'chirsam, "Avtomobil" deb yozib qo'yibdi. Xotinim: "Ibi-i-i-i!"- dediyu, yiqilib to'xtadi. (O'.Hoshimov 124).

... - Sardarjon! Boshingizga baxt qushi qanday qo'nganini batafsilroq aytib berolmaysizmi?

- Etsam eturaman! Buvam rahmatli etganaydila. "Qimorri yaqiniga yo'lama, badbaxt, qimorbozzi kosasi oqarmaydi", - deganla. Latereya – patareyaga toqatim yo'q. Oddix kuni shoshib ketvasam, bir bola "mashi latereyani oling, aka, mashina yutasiz", diydi. "yutadigan latereya bo'sa nega o'zing omiysan?" desam, "pulim yo'g'de, oka" diydi. Niche pul? Desam "besh yuz", diydi. Ming so'm bersam, qo'limga ikkita billet

tiqishtirvotti. “Hov, bratan, izdachisini bermisanmi, sani latareyang deb uyimga peshkom ketamanmi? Disam, “ikkita olavering”, ratchet bo’lavuz”, diydi. E, bore, nima bo’lsa bo’ldi, deb mundoq o’chirsam, mashina chiqdi!

(O’.Hoshimov. 126)

Til birliklaridan foydalanish ko’p hollarda nolisoniy ijtimoiy-ruhiy tomonlar bilan bog’liq bo’lganligi sababli lisoniy birliklarni qo’llash nafaqat nutq sharoiti, vositasi va hokoza kabi ijtimoiy hodisalar bilan, balki har-bir xalq, millat, hatto ijtimoiy guruh yoki toifa uchun odat tusiga kirgan qator urf-odatlar, rasm-rusmlar, ya’ni etnografik tomonlar bilan aloqador ekanligini ko’rsatadi.

Uyning to’rida o’tirgan turvasoqol odam kim kirsam, uzundan-uzoq duo o’qiydi, so’ng qiroat bilan tilak bildiradi.

- Ilohim sen ham mening yoshimga yetib yurgin, bolam!

Bir gap ha deb takrorlanavergach, Said Ahmad akaning g’ashi keldi shekilli, so’radi:

- Necha yoshga chiqdingiz taqsir?
- Manba? – dedi “duogo’y” salmoqlab.
- Shu jil ikkam jetmishga kiranman.
- Uni qaraya, - dedi Said Ahmad aka.
- Sening duoing mustajob bo’lsa, men sakkiz yil avval o’tib ketar ekanman-da! Men yetmish oltiga bordim!
- Qani, tur o’rningdan uka, endi joy almashamiz! (O’. Hoshimov 185).

Turli xalqlarning, hatto o’zbeklarning o’zining ichida turli toifa va guruhlarining bir-biri bilan salomlashishi jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalar, nutqiy shtamplar, harakat va holatlar bir xil emas. Bularni hisobga olish nutq odobi uchun o’ta zarurdir.

- Alyo, o’zingmisan, bolam? Vaalaykum assalom, mo’lla bo’lgin!

“Ziyoratlar qabul”, deysanmi? Murod hosil! Rahmat. Safar qandoq bo’lardi, zo’r bo’ldi! (O’.Hoshimov. 5)

.... - Mumkunmi? Gud moning! Salom! Yaxshimisiz? Ruxsatingiz bilan o'zimni predstavit etsam.... Jonetta Qobulovna Xaltaeva! Men sojaleniyu sizning sochinenielaringizni o'qigan emasman. Rostini aytsam, kitob o'qishga vaqt yo'q. bilasiz, vremya-dengi. Xatya eshitganman. V osnovnom, mamashkalar haqida yozarkansiz. (O'.Hoshimov. 18).

XX asrdagi taraqqiyot nutqdan lisonga, lisondan nutqqa bo'lgan zaruriyatning rivojlanganligini taqoza etadi. Chunki bu davrda kelib sotsiol tizimdagi o'zgarishlar, bozor iqtisodiyoti ham mamlakatlararo va millatlararo munosabatlarning avj olishi bilan bog'liq ekanligini davrni o'zi ko'rsatdi. Natijada til hodisalarini va ularga xos birliklarni farqlash, ularni har xil paradegmalarga birlashtirib, lisoniy mohiyatni yechish, "til" tushunchasiga batamom-imkoniyatlar majmuasi sifatida yangi mazmun berish natijasida imkoniyatlar sifatida ajratilgan lisoniy birliklar hazinasi shakillanishiga olib keldi.

Tabiiyki, hech qachon yo'qdan bor bo'lmaydi, balki mavjud narsaning rivojidan, taraqqiyotidan paydo bo'ladi-ma'lum bir turdagi taraqqiyot intihosi yangi bir turdagi rivojlanish ibtidosi bo'ladi. Nutqiy qo'llanishlarning idrokiy umumlashmasi sifatida avvalo nutq birligini va muloqat birligini farqlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Nutq birligi sifatida lisoniy birliklarning moddiy shaklda fonemani alohida nutq tovishi, morfemani alohida qo'shimchalar, leksimani nutqda qo'llangan so'z shakillari, har xil model va konstruktsiyalarni voqealangan, moddiy shakl olgan so'z birikmalari va gaplar sifatida yozma va og'zaki ko'rinishlarda yuzaga chiqqan, etnosotiopsixologik omillardan xoli hodisalarni anglatishi o'ziga xos xususiyatga egadir.

- yozdizmi, kennoyi? –dedi do'xtir bir zum to'xtab. – Taa-ak, taa-ak, karidor bizdan. Kusheshka bizdan. Matros bizdan. Taa-ak, yozing kennoyi. Yostiqliq, avra, choyshab, podadeyalnik. Sochiqlik iloji bo'lsa ikkita. Bint, yod, paxta, sterilniy bo'lsin. Choynik, payola, kosa, vilka, qoshiqlik, ko'kchoy –ikki pachka. Taa-ak, tabletkalar, anaprilin, effete kuchli, sul'fademitoksin, ravnabii.

Okogiiamda davlenie bor ekan. Demidrol yoki tazepan ham bo'laveradi....
(O'.Hoshimov. 34).

Muloqat birligida lisoniy va nolisoniy milliy, ijtimoiy, ruhiy sharoit, odatiy va hakozi omillarning muloqat jarayonida birgalikda murakkab bir hodisa sifatida voqelanishi va muloqat jarayonida ma'lum bir informative-ekspressiv funktsiyani bajarilishi tushuniladi.

- Yo'g'-e, -dedim atrofga alanglab.
- Paypoqqa tegadigan yosh bolamiz yo'q-ku! O'zi qanaqa edi? Nima qilarimni bilmay nuqul atrofga qarardim.
- Qiziqmisiz? – Ochil Oqilovich o'ng oyog'ini baland ko'tarib ko'rsatdi, menga g'alati qarab. – Bunisi qanaqabo'lsa, unisiyam shunaqa bo'lsa kerak-da?

Yo ikki oyoqqa ikki xil paypoq kiyish moda bo'lganmi hozir? Menga tahdid bilan qarab turardi.

... - Mana buni kiyaqoling, domla!...

- Kerakmas! – Ochil Oqilovich og'rinib qo'l siltadi.... Ochil Oqilovich sovuqqina xayrlashib jo'nadi. (O'.Hoshimov. 37).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, nutq birliklari va muloqat birliklari asosida nutqshunoslik turadi.

Tabiiyki, tilshunoslikning tadqiqq manbai-til; til esa faqat va faqat insoniy jamiyatda uning o'ziga xos aloqa aralashuv-muloqat vositasi sifatida yashaydi. Tilning ijtimoiy mohiyati va muloqatning eng asosiy vositasi ekanligini hamma davrlarda barcha tilshunoslar tomonidan o'rganib kelinayotganligi barchaga ayon.

Tilshunoslar muloqat jarayonida yaxlit bir butunlik sifatida voqealashuvchi va eingvo-etno-psexo-situasibi omillar majmui bo'lgan muloqat birliklaridan faqat og'zaki va yozma nutq shaklida voqealana oladigan hodisalarni tilshunoslikning tadqiqi sifatida talqin qildilar.

Kishi nutqiy muloqatga kirishar ekan, bu muloqat qaysi jamiyatda voqealanishini bilish zarur. Zero ki har bir jamiyatning nutq shtamlari, muloqat doirasi va mavzusi, leksikasi o'ziga xosdir. Bundan tashqari, har bir nutqiy

muloqat jamiyatining o'ziga xos argo va jargonlari bo'ladi. Nutq jarayonlari ishtirokchilari ulardan xabardor bo'lmasa, me'yoriy nutq amalga oshishi mumkun emas. Zero, bu tabaqalarda nutq iqtisoslashadi.

- Nishtyak yigitga o'xshaysan, bratan! Bir gap aytaymi? Qaynsinglim etilib turibdi. Zakonni qiz! Xohlasang, boja bo'lamiz. Qaynotamga bir og'iz aytsam, sobstvenniy gazeta ochib beradi. Reklamalarni gumbirlatib, qaysi raqqosaning nechta o'ynashi borligini yozib, millioner bo'pketasan! Qaynsinglim kopya onasining o'zi. Bir xillar qari qiz, oyog'i cho'loq, deydi. Dekoraytibdi! Chap oyog'i kaltamas, o'ng oyog'i sal uzunroq, xolos. Mening xotinimniyam bir oyog'i uzunroq. Faqat o'ngi emas, chap oyog'i! xo'p nima qipti shu bilan? Qaytaga yaxshimasmi? Ko'cha-ko'yda begona erkaklar ko'z olaytirib qaramaydi, ko'ngling tinch, biznes bilan shug'ullanasan. Kelishdikmi bratan? Qo'lni tashla! (O'.Hoshimov. 106).

Ushbu nutq parchasini o'qib tahlil qilish bizni shunday xulosaga olib keladiki, bunda har tabaqa namoyondasi (tadbirkor) o'ziga xos ravishda gapiradi. Xususan, yigitga uylanish to'g'risida maslahat beradigan tadbirkor, o'z izzat-hurmatini bilmaydigan, madaniy saviyasi o'ta past, uning dunyosi pul, oriyati yo'q shaxs. Buni uning nutqidan osongina ilg'ab olish mumkun. Zero, u ilk murojaat shaklida uning nutqi o'quvchini hayratga soladi, unga salbiy ko'z bilan qarashga olib keladi. Unda madaniylik, or nomuslilik yo'q. uning dunyosi mol-mulk, qizning dunyoqarashi, qiz bolaning yoshi o'tib qolgani, jismoniy nuqsoni ham qiziqitirmaydi. To'g'i, balki qari qizning, jismoniy nuqsoni bo'lishiga qaramasdan, balki uning ichki dunyosi, dunyoqarashi, madaniy saviyasi yuqori bo'lishi ham mumkun. Buning uchun yigit u bilan muloqatda bo'lishi lozimdir.

Chunki u izzat - hurmatli, tarbiyali o'z qadr-qimmatini biladigan shaxsdir. Ehtimol u bunday yigitga turmushga chiqishga rozi ham bo'lmas, balki u g'ururining paymol bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan shaxs sifatida nomardlikni do'ndirib qo'yadigan molparast ma'naviy dunyosi "g'ovlab" ketgan shaxsga turmushga ham chiqmas.

Har bir shaxs muloqat jarayoniga kirishar ekan fikrini, his-tuyg'usini, munosabatini yozma yoki og'zaki shaklda bayon etish jarayonida uning oldida maqsad turadi. Bu maqsad so'zlashuvchining boshqalar uni tushunishi, anglashidan iboratdir. So'zlovchi va tinglovchining bir-birini tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo'lganidagina amalgam oshishi mumkun. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, so'zlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy bo'lsa, nutq ham ular uchun shunday umumiy va ijtimoiy bo'ladi. Ammo lisoniy tizimda ayni bir xil mazmun va munosabatni ifodalashni yuzlab omillari mavjud.

Masalan, biz yuqorida uylanadigan yigitga tadbirkorning maslahatini ko'rdik. Endi onaning o'z o'g'liga bergan maslahatini ko'raylik:

Ona: - qachongacha shundoq yurasan, o'g'lim? Ko'chaga chiqolmaydigan bo'lib qoldimku? Kimni ko'rsam "Toy qachon" deydi. Tavba bir zamonlar xotin olish desa yigitlar o'zini tomdan tashlardi. Endi bo'lsa, uylanish desa zahراس ketadi hamasining. Nima, boshi oltin, oyog'I kumishdan olasanmi? Hamma xotin bir xotinda! Ana, Xolposhning kelini. Tinchitdi-qo'ydi. Sho'rlik kuni kecha qo'li kasov, sochi supurgi bo'lib yuruvdi. Hozir ko'rsang havasing keladi. Qaynonasini oq yuvib-oq tarab qo'yibdi, barakatopkur kelin!

Men ham keksayib qoldim kundan-kunga nari ketayapman. Bu qishdan chiqamanmi-yo'qmi, hudo biladi. To'yingi ko'rsam, o'z qo'lim bilan eganga topshirsam deymanda! Silkinib-silkinib hizmatimni qilsa, ko'chadan kelganingda osh-ovqatingni tayyorlab tursa, kiyimingni dazmolsiz qoldirmasa bo'ldida! Xaliyam bo'lsa o'sha tog'angni qizidan qolma! Nima qilibdi, qumriday qiz. Hushdan kammi, aqildan kammi? Buning ustiga doctor bo'lsa! Mening yotarim bor turarim bor, nima qilsa ham o'zingniki. Ot tepkisini ot ko'taradi. Kecha tag'in kelib ketdi, boyaqush. Bilan senda ko'ngli bor shu qizning.

Mana pionistaning maslahati:

Nima? "Uylanmoqchiman" deysiz? Og'zingizdan shamol olsina!

Soqolingiz kindigingizga tushib ketsayam uylanmang! Xotinni nima qilasiz? Xotin oldingiz nima-yu, tovuq boqdingiz nima? Ikkoviyam bir go'r! miyasida shamol "skvazniyak" bo'libyuradi. Tovuqni-ku ozmi-ko'pmi naf bor. Tuxum tug'adi. Avval tuxum tug'ib, keyin qoqog'laydi. Xotinch, vey kapikali ish qilmasdan quloqqa tepadi!... Xotiniimni taniysizmi? "yo'q" deysizmi? To'g'ri qilasiz! Ko'rsangizchi, voy ming km ga qochib ketasiz! Gar-r-r-rantiya berib aytamanki, xotiniimning roparasidan ko'bra chiqib qolib, "Vish-sh-sh" deb og'zini ochsa, xotiniim "tuf" desa bormi, ilon til tortmay o'ladi!

Xoy tovuq miya men go'rda nima qilaman?! Nega zaxaringizga har kuni ichasiz? Deydi. Nima har kuni ichmay kunora ichsam, bir nima o'zgarib qolardimi? Ichsam, sening pilingga ichayapmanmi? O'zining og'zi qalampir zavod-ku, tag'in menga "og'zingizdan kir o'raning hidi keladi", deydi! Birov senga mening og'zimni hidla, diyapdimi? "Har kuni isqirt bosib kelasiz, kiyimlaringizni yuvaverib jonimdan to'ydim", emish! Fahmi yo'q-da fahmi yo'q! yuvib nima qilasan. Ertasiga tag'in isqirt bo'ladi-ku! (O'.Hoshimov. 107).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, so'zlovchi o'z imkoniyatlari darajasida qanday so'zlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Albatta lison vanutq mohiyatan yaxlit butunlik bo'lgan nutq faoliyatining ikki tomonidir va ularni bir-biridan ajratish mumkun emas. Ularga diolektik falsafaning, bir tomondan, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, zaruriyat, majburiyat (UMLSM), ikkinchi tomondan, -yakkalik (alohidalik) xususiylik, xodisa, voqelik, oqibat, tasodif, erkinlik (YaZEVOE) kabi kategoriyalari orasidagi munosabatlar nuqtai nazardangina yondashishni taqoza etadi.

Bunda yakkalik – umumiylikning, hodisa-mohiyatning, voqiylik-imkoniyatning, oqibat-sababning, tasodif-zaruratning, erkinlik - majburiyatning yuzaga chiqishi, voqealanishi moddiy shaklda bevosita kuzatishda berilgan ko'rinishidir.

Shuning uchun har bir yakkalik bevosita kuzatishga berilmagan, idrokiy usul bilan ochiladigan, aql bilan ilg'ab olinadigan umumiylikning, har bir hodisa-

shunday mohiyatning, voqeylik imkoniyatning, oqibat esa sababning, tasodif zaruratning, erkinlik majburiyatning umuman har bir YAHVO o'zi aloqadar bo'lgan bir UMISning tajallusi ekanligini e'tiborga olish lozimdir. Vaholanki, tilning voqealanishi "Vositai rrobitai olamiyon" (A.O'tar) vazifasini bajarishi bilan lisoniy nutqiy faoliyatni o'zida aks ettirishi lozim.

Uzoq davrlardan buyon tilshunoslar inson nutqni inson ongining mahsuli sifatida, psixologlar esa bu mahsulning ruhiy fiziologik tamoillari bilan shug'ullanib kelmoqdalar.

Nutqiy muloqat o'nlab etnik (milliy), etnolografik, ijtimoiy, tarixiy, etnik-estetik, falsafiy-madaniy va jumladan, bir arkibiy qism sifatida sof lingvistik lisoniy omillarning murakkab sistemasidir.

- Endi domlajon, siz aytgandek, to'g'ri, kengashli to'y tarqamas deydi, ammo tengi chiqsa tekin ber, deganlari juda to'g'ri. Uyqu joy tanlamas, muhabbat chiroy deganlaridek, singlimizga shunday odam xaridor bo'pti, boriga Baraka qilib to'yni o'tkazib yuboravering. (O'.Hoshimov. 164).

Yuqoridagi nutq parchasida muloqat so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro diskurs (fikir almashtirish) savolga yarasha javob berish holati kuzatiladi.

Shogirdning fikriga qarshi ravishda domla quyidagicha javob qaytaradi: (diskurs jarayonida).

- Yo'q, uka, boshqa gap bor. – Domla Obidiy ho'rsindi. – Osilsang baland dorga osil, depmizu, bu yog'ini o'ylamabmiz. Bor tovog'im, kel tavog'im, deb bejiz aytishmagan. Garniture qilish kelin tomonning vazifasi. Ruminskiy garniture bor ekan. Hali kuyov hafa bo'ladimi, italyanskiysidan olmapsizlar deb. O'zining bilasan, kiyovni payg'ambarlar ham siylagan.

Turtursunboyning ichida bir nima uzulib ketgandek bo'ldi. "O'zing ham o'l, kiyoving ham!" – dedi ichida. (164).

Muloqat, jumladan nutqiy muloqat inson faoliyatining mahsuli bo'lib u psixologiya va falsafaning juda chigal muammolaridan biridir. Insoniy faoliyatda sub'ektiv, ya'ni inson uchun ob'ektiv-insondan tashqarida bo'lgan borliq uchun

xos tomonlarni ajratish, bir-biridan farqlash faoliyat jarayonida sub'ektivlik sanaladi. Hozirga qadar sub'ektivlik bilab ob'ektivlikning o'zaro uyg'unlashuvini o'rganish masalasida faylasuflar, ruhshunoslar va tilshunoslar xilma-xil nuqtai nazardan yondoshadilar. Har bir fanda bu masalaga daxldor fikr turlicha talqin etilib kelinmoqda. Haqiqatdan ham, insoniy faoliyat, ya'ni istagan turdagi ish kimningdir alohida xususiy mahsulidir.

U hatto bir jamoa tomonidan amalgam oshirilsa, alohida shaxslarning harakati samarasi sanaladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, insoniy faoliyat mohiyatan sub'ektivdir. Faoliyat alohida individlar tomonidan amalga oshirilsada, bu faoliyat boshqa bir individlar tomonidan o'qiladi, baholanadi va unda shaxsiy munosabat tuyg'ulari uyg'onadi.

Agar o'zga individ faoliyati, baholovchi individ uchun ham xos bo'lsa, faoliyatning o'qilishi, baholanishi shu faoliyatga munosabat tuyg'usining shakillanishi bilan bog'liq bo'lib qoladi.

Nutq faoliyati alohida shaxs tomonidan amalga oshirilganligi sababli mohiyatan sub'ektiv, ikkinchi tomondan bu faoliyat boshqa shaxs tomonidan o'qilganligi, baholanganligi sababli ob'ektivdir. Individ faoliyati faqat shu individga xos bo'lib, undan tashqari boshqa individlarga mutloqa uchramaydigan hodisa bo'lganligi sababli bu faoliyat sub'ektiv emas ob'ektivdir. Mohiyatan ob'ektiv bo'lgan faoliyat elementlari ma'lum bir shaxs tomonidan ma'lum bir butunlikda faoliyat sifatida yuzaga chiqishi esa sub'ektivlikdir. Shuning uchun nutqiy faoliyatda biror tarkibiy qism yo'qki, u mohiyatan ob'ektiv bo'lmasa, ammo mana shu ob'ektiv tarkibiy qism yo'qki kommunikatsiyasi bir kishi, bir faoliyat predmeti sifatida voqealanishi sub'ektiv tomon ekanligi olinmog'i lozim. O'z vaqtida buyuk allomalar azal-azaldan nutq so'zlovchini tinglovchilarga tanishtiruvchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaganlar.

Turkey qomusiy asarlardan birida, jumladan Yusuf Xos Hojib o'z asarining “so'zlash avsolni gapirishmi” deb nomlangan maxsus bobida: “Kishi so'zlamasa, uning o'zligini hech kim ham taniyolmas edi” degan g'oyani ilgari suradi.

Shoir... o'qish va bilim olishda tilning ahamiyati qisqa va mazmunli so'zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli o'gitlar beradi.

So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,

Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin...

Sening o'zing esonlik tilasang, tilingdan yaroqsiz so'zingni chiqarma.

Bilib so'zlasa so'z donolik sanaladi, nodonning so'zi o'z boshini yeydi.

Ko'p so'zda ortiq joyda ko'rmadim,

Yana (ko'p) so'zlashdan naft topmadim.

So'zni ko'p so'zlama, biroz ozroq so'zla.

Yusuf Xos Hojib yaxshi so'zni har qanday oltin kumushdan ham ortiqroq bo'ladi:

Mendan senga kumush, oltin qolsa,

Ularni sen bu so'zga teng tutmagin.

Kumushni shikas olsang tugaydi. Olqinadi,

So'zimni ishga tutsang kumush qozonadi!

Muloqot jarayonida so'zlovchi – komunikator tinglovchiga – adrisat o'z nutqi yoki muloqot jarayoni orqali o'zini tanitadi. Bu jarayonda u o'zining kimligini, ma'naviy savyasini nomoish etadi.

- O'chir, o'chir yaramas! – dedi ovoz dag'-dag'a bilan.
- Xa-a-a! alam qildimi? – Ravshan battar zavqlanib kuldi. Erga teksangchi, alaming uch kunda bosili-i-ib qoladi!
- Ur-r-rug'ingni o'ynatib yuboraman!
- Telifon go'shagi yorilib ketay dedi.
- Ravshan barilla xoxoladi.

- O'ynatasan-a, o'ynatasan! – direktor opa borku. Ko'bra! O'sha “ko'bra”ga qizlar bir og'iz aytsa, o'zingni urug'ing o'ynab ketadi! Ko'zaynagini yechib turub bitta chaqsa bormi til tortmay o'lasan! (O'.HOshimov. 155).

So'zlovchi va tinglovchilarning yuqoridagi muloqotidan sezilib turibdiki, muloqatning maqsadi muloqat jarayoning kechishi qay darajada ekanligini ushbu muomilalardan sezib olish mumkun. Umuman olganda nutq jarayoni, insonning nutqiy faoliyati ijtimoiy va tabiiy bo'lganligi tufayli u nihoyatda rang barangdir. Masalaga shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, agar struktur-sistem tilshunoslik tizimini til sistemasini o'rgansa, diskurs-muloqot o'zaro fikr almashuv, komunikatsiya, aloqa aralashuv, so'zlashuv tizimini o'rganadi, oddiy qilib aytganda, nutqiy muloqotning yaxlit bir tizim sifatida - bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillarining yog'indisini o'rganishi bilan farqlanadi.

Nutq jarayoni komunikatsiyaga, so'zlashuv hodisasiga-diskurscha tizim sifatida yondoshish pragmatikaning asosiy tadqiq manbai va usulidir, qolgan barcha fanlar, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etika, estetika va boshqalar bu tizimning alohida-alohida olingan tarkibiy qisimlari bo'lgan elementlarni shu tizimda ajratib, ushbu ajratib olgan narsasini o'xshatish tamoili asosida paradikmalarga birlashtirib tahlil qiladi.

Muloqot, ya'ni odamlarning bir biri bilan aloqa aralashuvi, bir qarashda oddiy bir narsadek tuyuladi, ammo insoniy faoliyatlarning muhum ko'rinishlaridan biri bo'lgan muloqotning qanchalik murakkab ijtimoiy jarayon ekanligini tasavvur qilsak, uning naqadar murakkabligini ko'rish mumkun. Masalan, quyidagi matn parchasida, matnning asl ma'nosiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, butunlay boshqa ma'no mavjudligini ko'rish mumkun.

- To'g'rida! Uyi yo'q odamda ayvon nima qilsin? Shaxarning mashriq tomonida, tog' etagidagi dachasi oddiygina. Atiga olti xonali. Savunasi qaynoqqina. Fantani ihchamgina. Baseni chuqurgina. Shu arzimagan dacha ham o'ziniki emas. O'sha qishloqda yashaydigan qudavachasining nomida. Eshak aravasi ham, foetoni ham yo'q. atiga bittagina “BMV”si bilan bittagina

“neksiya”sib bor. Bittasi qayn ukasiniki, bittasi quad xolaniki. Ana endi insof yuzasidan aytinglarchi! Shunday faqir bir davlat tomonidan kvartira olishga haqlimi yoki yo’qmi?

Mana arizasi, oila a’zolari:

1. O’zi
2. Xotini
3. O’g’li
4. Kelini (avvalgi eridan uchta bolasi bor)
5. Qizi turmushi buzilgan (bir yarimta bolasi bor mato – odinochka. Qornida gumonasi bor).
6. Buvisi 97 yoshda 60 yil konfirqa a’zosi. Amir Olimxon haramida ko’p jabr chekkan.
7. Tog’asi 81 yoshda....
8. Ammasi 80 yoshda...

.....

(O’.Hoshimov. 190).

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, muloqotning nihoyatda murakkabligi, u faqat axborot manbai emas. Shuning uchun ko’pchilik olimlar fikr almashish, axborot berish, axborot olish – axborot qismini muloqotning atigi bir tarkibiy jihatlari sifatida qarab, muloqotning o’zini insoniy faoliyatning bir elemanti (mikrosistemi) deb talqin qiladilar va uning murakkabligini ta’kidlaydilar. Falsafiy nuqtai nazardan muloqotga quyidagicha ta’rif beradilar:

“Muloqot – ijtimoiy subyektlar (shaxslarning) sinflar guruhlar va toifalarning faoliyati, axborotlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, bilim, ko’nikma hamda malakalari bilan o’zaro almashinuvi va bir-birlariga ta’siri jarayoni”dir.

Muloqotning muhim tamoyillaridan yana biri, muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta’siridir. Muloqotning faolligi ham mana shunda ko’rinadi va muloqotga kiruvchi shaxs o’zining qandayligini namoyon qiladi.

- Mani ahmo deb o'ylovossizmi, oka! Hyech qanaqa "oqtepa-moqtepa"ni bilmayman! Adresim sabsem boshqa. A-vobshe otimam Sardormas, Alibek! Hamma Alobert deydi!

- Shunaqa demaysizmi, ukajon! Vnemanil zapis! Hurmatli tomoshabinlar. Kulib turgan yigitning quvonch to'la ko'zlariga qarang! Mana sizga mashinaning kaliti! Yana bir narsa so'rasam, maylimi, Sardorjon!

- So'rayvering!

- Uylanganmisiz?

- Velosaped olishga pul yo'g'u, xotinga balo bormi?

- Shuning uchun suradimda ukajon! Mana, Sizga yana to'rt million so'm pul! Kattakon to'y qilishga bermalol yetadi! Tanlaganingiz bormi, o'zi?

- Bor! Besh-oltitasi ochered bo'p turibti!

(O'.Hoshimov. 127).

Muloqot – o'zligini namoyon etish va ijtimoiy amaliy faoliyat. u ijtimoiy ta'sir o'tkazishning asosiy shakli sifatida jamiyatda alohida ahamiyatga egadir. Ba'zan bu tamoyilning o'zi muloqot bilan tenglashadi. Bunday tenglashishning asosi muallifi avval Arastuga borib taqaladi. U insonni ijtimoiy, ya'ni jamiyatda insonlar orasidagi muloqot orasida shakllangan jonzot deb ta'riflaydi. Ayrim hollarda jamiyatning o'zi muloqot mahsuli sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy munosabatlar bilan muloqot jarayonini UMIS/YaHVO dialektik munosabatida talqin etish to'g'ri yo'ldir. Ijtimoiy munosabatlar UMIS mavqyeida bo'lsa, muloqot ularning rang-barang voqyealanishlaridan birida YaHVO mavqyeida bo'ladi. Shunday qilib, muloqotga shaxsning ijtimoiy birlik sifatida o'zlikni namoyon qilishning bir shakli sifatida qarash lozim.

Nutqda yoki nutq parchalarida ahloq-odob, so'zlashish rasm-rusumlari, nutqning muayyan ehtiyojlari, so'zlovchi va tinglovchining yosh, saviya, madaniy darajasi kabilar o'z aksini topadi va bularning barchasi nutq ta'sirchanligi uchun ahamiyatlidir.

Tilshunoslik fani tilning ichki qurilishi, lisoniy birliklar, ularning o'zaro munosabatlari, tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari masalalari bilan shug'ullanib, nolisoniy omillarni ko'p hollarda ekstralingvistik omillar sifatida tadqiqot jarayonidan chetlashtirsa, sociolingvistika nutq uchun ahamiyati bo'lgan barcha qirralarni birgalikda olib qarashga intiladi. Shu sababli hozirgi sociolingvistik tadqiqotlar tilshunoslar nazarida mutlaqo tilshunoslikka aloqador emasdek tuyuladi. Xolbuki, o'z milliy tilining bilimdoni bo'lgan har bir shaxs shu tilda go'zal nutq ijod qila olishi bilan bir qatorda halqning muomala odobidan ham bohabar bo'lmog'i lozim. "Mol olasi tashida, odam olasi ichida" deganlaridek, har doim ham odamning suratidan uning siyratini bilib olish imkoni bo'lavermaydi. Faqat ro'paramizda turgan kishining o'ylari tovushlarda, nutqqa aylanib, bizga yordamga kelgandan keyingina uning asl qiyofasini chuqurroq anglay boshlaymiz.

Farmonbibi: - Bu xonadonda men xo'jayinman! Ertadan boshlab "Striptiz" qilasan! Farmonbibi bir narsani bilmasa gapirmaydi! Birinchidan. Figurang chiroyli bo'ladi. Ikkinchidan, figurang qancha chiroyli bo'lsa, To'xtavoyimga shuncha yoqasan. Uqdingmi?

(O'.Hoshimov. 99).

Albatta, nutq har birimizning kimligimizning har qanday pasportdan ko'ra yaxshiroq ko'rsatadi-da. Buning asosiy boisi shundaki, so'z odamning qalbidan chiqadi.

Yassaviyning fikricha:

"Men so'zlamas, jon so'zlamas, imon so'zlar! Tabiiyki, imon qalbda bo'ladi.

Dili pok odamning ko'zi ham, o'zi ham pok bo'ladi. Shuning uchun bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy Farxodga tavsif berar ekan:

Demankim, ko'ngli poku ko'zi pok,

Tili poku so'zi poku o'zi pok, - deya Istf qiladilar va boshqa bir baytlarida:

Fahm ayla, kishi holin so'z demagilki

Kim berdi xabar hadiq ko'ngildadidan, - deya bu fikrni yanada rivojlantiradilar.

... Navoiyning tushunishicha, til ijtimoiy hodisadir. Til insonni hayvondan ajratuvchi “gavhari sharif”dir. Til tafakkurning ifoda qurolidir. Kishining ko’ngli, fikri daryodir, so’z esa – dur, so’zlovchi g’avvosdir. Dur turli xilda bo’lgani kabi, so’z ham har xil bo’ladi. Yaxshi so’z kishiga jon baxsh etadi, yomon so’z kishini halok etishgacha olib boradi. Til ma’rifat va adabiyot quroli hamdir. So’z so’zlashdan maqsad ma’no ifodalashidir.

“Ammo chun alfoz va iboratdin murod mu’nidir va mazkur maxluqotdin maqsad insondur va ul mazhari maoniy va bayon, so’z oning so’zidadur va takallum oning kamolida borur.

Binobarin, “man” adosida alfoz tilda kelur va ul alfazdin ma’ni fahm bo’lur”!

Muloqot jarayonining tarkibiy qismida nutq, fikr almashish, axborot berish mujassamlashadi.

- Menga qarang... Quloqqa aytadigan gap chiqib qoldi. Yaqinroq keling... Gap shu yerda qolsin-ku... Qiziq ish bo’ldi: kitobim chiqdi! O’n ming nusxa! ... E, baqirmang-e! Tomog’ingizda mikrafon bormi, nima balo. Ovozingiz buncha baland! Tabriklagan odam baqirishi shartmi? Men sizni eski qadrdonim deb sir aytsam... Gap shu yerda qolsin, dedim-ku! Nima? ...

(O’.Hoshimov. 56).

Fikr bayon qilish jarayoni, lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og’zaki shakli moddiy voqyealanish ma’nosi bilan ham bog’liqdir. Shunga ko’ra lisoniy vositalarning moddiy shaklda voqyealanmagan muloqot turlari nutqsiz mulofot deb baholanadi. Chunonchi, “Bahorning o’n yetti lahzasi” kinofilmida Berlindagi “Esefan” qahvaxonasida sovet razvetkachisi Shtirlisning – uni ko’rish uchun xotini bilan so’zsiz – restorandagi “tasodifan” birga o’tirgan kimsalar sifatidagi muloqoti, uchrashuvi bunga misol bo’la oladi. Bu muloqot Shtirlis uchun ham, uning xotini uchun ham muhim ahamiyatga ega bo’lgan uchrashuv edi. Ushbu uchrashuv har ikkala tomonning sog’-salomat, bir-birini sog’inib qo’msayotganligi haqida axborot beradi. Darhaqiqat, bu muloqot so’zsiz – lisoniy vositalarsiz berilgan qabul qilingan muloqot edi.

Istiqloldan keyin o'tgan davr mobaynida jamiyatda sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlar til siyosatiga bo'lgan yangicha qarashlar o'zbek tili va nutqining rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazganligi barchaga ayondir.

Hozirgi kunda o'zbek tilida elektronika, kibernetika, informatika va hisoblash matematikasi bo'yicha, tibbiyot, kimyo, yadro fizikasi, internet bo'yicha o'nlab o'quv qo'llanmalar nashr etilmoqda. Demak, o'zbek tilida mana shu sohalarga oid ilmiy nutq ham shakllanmoqda va taraqqiy etmoqda.

Madaniy saviyasi yuqori, madaniyati dono kishilar o'z imkoniyatlaridan foydalanib, o'z nutqiga badiiylik, eshituvchi yoki tinglovchiga lazzat bag'ishlaydigan nutq ijod qiladilar.

- Shu ... naxorga osh jonivorni so'fi azon aytmadan qilish shartmikan? Soat sakkizdami to'qqizdami qilsa ham bo'ladiku! Odamlar hotirjam tanavul qilish, ishiga boradi.

- Naxorgi osh xuddi o'sha so'pining azoniga qarab suziladi-da, akam aylanay! – dedi Xolmat tajang xozirjavoblik bilan. – Nima, mo'ysafidlar “palonchi prapisor bo'kib uxlasinlar”, deb kutib o'tirishi kerakmi? Namozdan chiqib to'g'ri osh kelaveradi-da! ...

- Ustoz, Said Ahmad aka palovni “sayratib” yuboradi. Chung'araning guruchi-yu, zaytun yog'idan qilingan oshni qaysi adiblar yemagan deysiz. Albatta, bizlar ham judayam noinsof emasmiz. Oshga hamma baholi qudrat “hissa” qo'shadi. Birov to'rttagina sabzi, birov yozuvchilar bog'ining oshxonasidan olib chiqilgan bir kaftgina tuz, birov bir quti gugurt degandek... Erkin aka ustozning dachasida bir emas, naq oltita Oltiariqning piyozini olib kelgan. Piyoz bo'lgandayam zo'ridan... Said Ahmad akada Erkin Vohidovdan xat boribdi. Xatda shunday so'zlar bitilgan ekan. “Ustoz! Piyozimni shuncha boqqaningiz uchun rahmat! Ikki kunda oyoqqa turib ketdi, kelib ovora bo'lib yurmanglar. “Yoshlik – beboshlik” deb shuni aytadida! Hayronman, tengini topibdimi, bitta piyoz bilan Oltiariqqa kirib ketdi!”

(O'.Hoshimov. 205).

Yuqoridagi parchalardan ko'rinib turibdiki, nutqdan mohirona foydalanuvchi so'z ustalarining asosiy manbai halq nutqidir. Masalan, o'tin yaxshi yonishi uchun uni ma'lum tartibda qalash kerak. Kishilar bu haqiqatni bir-biriga, ayniqsa, shu sohada tajribasi kam kishiga o'rgatishi kerak bo'ladi. Hammaga ma'lumki, bu fikrni juda ko'p variantlarga aytish mumkin. Masalan, "qalovini topsang, o'tin yaxshi yonadi yoki o'tin quruq bo'lsa yaxshi yonadi" va boshqalar. Ushbu gaplarda hyech qanday g'alizlik yo'q, chunki u til qoidalariga binoan to'g'ri tuzilgan. Biroq, inson ta'bi bu bilan o'la ravishda qoniqmaydi. Uning ta'bidagi go'zallika bo'lgan ishtiyoq shu gapni yanada jozibaliroq qilishni talab qiladi. Shu talab asosida "o'tin" so'zini "qor" so'zi bilan almashtiradi-da "qalovini topsang qor yonar" tarzida nutqida qo'llaydi. Shu bilan u mazkur gapda go'zal ifodasini topadi. Eshitganlarga bu yoqadi. Kishi o'ziga yoqqan narsani yo'qotmaslikka harakat qiladi va uni o'zida asrab yuradi. Buni yoqimli, go'zal qilgan narsa, birinchidan, "qor" so'zining "qalov" so'ziga uyg'unligi, ya'ni tovushdoshligi, ikkinchidan, qorning olovga zidligi, uchinchidan, bo'rttirish, ya'ni mubolag'a borligidir. Yoshligidan tabiiy ravishda bunga o'xshash gaplar qulog'iga yoqib qolgan kishi beixtiyor shunday jummalarni yarata boshlaydi. Natijada nutqning rivojiga sabab bo'ladi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, "qizil imperiya"ning zo'ravonlik siyosati tufayli bizda unitilib ketgan ba'zi haqiqiy sharqona musulmon olami uchun xos bo'lgan ko'rishish odoblari o'zbekona lutfga ma'lum darajada xuruj kelganligini bugun barcha olimlar e'tirof etmoqdalar.

- Siz vonovoy" – rejissyor qo'lini to'pponcha qilib peshonamga o'qtaldi.
- Men?
- Da, ga, siz! – rejissyor o'rnidan turib ketdi. ...
- Chepuxa, vot, imenno hayotiy emas! – dedi. ...
- Yerunda! – dedi arslonning yolidek sochini silkitib.
- Yana nimasi yerunda?
- Bironta epizodda eshak yo'q.
- Nima?

- Eshak yo'q deyman!
- Eshakni nima qilasiz?
- Mestniy koloriy kerakmi – yo'qmi?
- Qachongacha eshak koloriy bo'ladi? – dedim bo'g'ilib. – Eshakka boshqorong'i bo'lganmisiz, nima balo? Har kinongizda eshak hangramasa, xumordan chiqmaysiz?

(O'.Hoshimov. 91).

Xullas, jamiyat taraqqiyoti va undagi sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlar o'z aksini nutqda topadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, muloqot jarayonida ham, nutqning voqyealanishida tovushdan – bo'g'inga, bo'g'indan – so'zga, so'zdan so'z birikmasiga – so'z birikmasidan – gapga emas, balki muloqot uchun oddiy bo'lgan muloqot quymo shtamplariga murojaat qilinadi.

Albatta, til va nutqning rivojlanish omili til siyosatiga bevosita bog'liqdir.

Til hodisalarini va ularga xos birliklarni farqlash, ularni har xil paradigmalariga birlashtirib, lisoniy mohiyatini ochish. “Nutq” tushunchasiga batamom imkoniyatlar majmuasi sifatida yangi mazmun berig natijasida imkoniyatlar sifatida ajratilgan lisoniy birliklar shakllanadi. Nutqiy amaliyotni, flohida qo'llanishlarni til bosqichida to'rlagan bu xazina endi zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan yangicha tadqiqot kutmoqda.

Zero, bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar davrida kishilar o'rtasidagi muloqot turlari son va hajm jihatdan kengayib bormoqda. O'ziga xos kommunikasiya sohalari vujudga kelmoqda. Bu esa til strukturasi variantlarining ma'lum bir ijtimoiy sosiumda qo'llanishi lozim bo'lgan me'yor vazifasini o'taydigan nutqni yuzaga chiqarishni taqozo etadi.

O'z-o'zidan ravshanki, bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshayotgan demokratik jarayonlar kishilar o'rtasida turli muloqot sohalarni keltirmoqdaki, bu hol bir qancha sosial guruh sosiumlarni yuzaga keltirdi.

Navbatdagi o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri: Ilmiy fikr rivojini ta'minlab, jamiyatning nutq tarbiyasiga e'tibor berishni kuchaytirish kerak.

Bundan tashqari sosiologiyasi masalasi ham mutaxassislarning e'tiborida bo'lishni taqozo etadi. Bunda shahar va qishloq aholisi tilini, xususan, o'zbek adabiy tili nutqining kasb-kor, sosial guruhlarda funksional ko'rinishlarini, tilning turli madaniy-sosial vazifalarini o'rganish muhimdir.

Nutq talablaridan kelib chiqib, til tizimidagi o'zgarishlar muayyan tilning doimo taraqqiyotda ekanligidan dalolat beradi. Bu esa ayni chog'da til egalarining o'zligini anglash jarayoni bilan uzviy bog'langandir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mustaqillik davrida o'zbek tili avvalgi davrlarga xos bo'lmagan o'zgarishlarga duch keldi. Bunga albatta, ona tilimizga davlat tili maqomi berilgandan keyingina katta imkoniyat yaratildi. O'zbek tili o'zining funksional doirasini kengaytirib borib, jahon maydoniga chiqmoqda. Biz buni ijtimoiy – siyosiy iqtisodiy munosabatlarda, madaniy – ma'naviy aloqalarda ko'ryapmiz.

Xullas, doimo rivojdagi til jamoasi nutqi muloqoti talablari bilan yangi mazmanni ifodalash uchun xizmat qiladigan mavjud til vositalari o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish til taraqqiyotining umumiy yoki univ. qonunidir.

II - bob. Sotsumlar nutqining vazifaviy ko'rinishlari

Umumiy tilshunoslik fanining asoschisi V.Fon Gumboldt (1767-1835) tilshunoslik fanining muammosini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olim edi. ... V.Fon Gumboldt til bilan nutqning tilshunoslik fanining ob'ektlari sifatida ajratib o'rganish masalasini ilgari surgan. Uning ta'rifiga ko'ra nutq bilan nutqni tushunish inson nutq faoliyatining ikki tamonini tashkil etadi. Ma'lumki, nutq ayrim shaxslarning maxsulidir, ammo ayrim shaxslar o'zlaridan oldingi avlod tomonidan yaratilgan kollativ mahsulotidan foydalanadilar. Nutq faoliyati o'z navbatida so'zlashuvni va tinglovchini taqozo qiladi.

Shuning uchun tildagi kollativ va individual xususiyatlarni o'rganish zarur!

Har bir fanda muloqot tushunchasi talqiniga o'ziga xos ko'rinishlar yuzaga kelishi mumkin va ular o'z tahlil maqsadlari hamda uni amalga oshirish uslublari bilan farq qiladilar. Ammo tadqiqotchilar muloqotning ma'lum belgi, ko'rinishlarini o'rganayotib, uning umumiy belgi, ko'rinishlarining xususiyatlari to'g'risida boshqa fan sohalarida bildirilayotgan fikr-mulohazalarni e'tiborga olishga majburdirlar.

F.de.Sosyurning ta'kidlashicha, insonning nutq faoliyatiko'p tamonlama hodisa bo'lib falsafa, psixologiya, fiziologiya, antropologiya, filologiya kabi turli fanlar tomonidan o'rganilishi lozim. Shuning uchun nutq faoliyatini o'rganishda F. de Sosyur ham V.Fon Gumboldt kabi tilshunoslik fanining chegarasini, predmetini aniqroq ta'riflash maqsadida F. de Sosyur til bilan nutqni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til nutqqa ziddir. Til bilan nutqning asosiy farqi- til ijtimoiydir, nutq esa individual hodisadir. Garchi F. de Sosyur til bilan nutq o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni e'tirof etsa-da, ikkala hodisani alohida-alohida o'rganishni talab qiladi. Fanning bu ikkala tomonini o'rganish uchun F.de.Sosyur til lingvistikasi va nutq lingvistikasi degan nom ham berdi!

Muloqotning ilmiy yoritilishi bilan turli fanlarning band bo'lishining o'ziyiq uning ko'psathli, keng o'lchovli, turlishakl va xossalarga ega bo'lgan tizimli hodisa ekanligidan dalolat beradi.

Faqatgina tizim sifatida qaralishgina uning talabini, tarkibiy qismlari mohiyatini va bajaradigan vazifasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Muloqatning tizim sifatida talqin qilish uning ta'rifida o'z aksini topmasdan qolmaydi. Binobarin qomusiy lug'atlarda muloqat "ijtimoiy shaxslarning o'zaro aloqasi va hamkorlik harakati kechadigan jarayon" sifatida ta'riflanib, ushbu jarayonda "faoliyat, axborot, qobiliyat, ish – harakatlar almashinuvi yuzaga kelishi", deb qayt qilinadi.

Albatta muloqat tarkibida shaxslararo munosabat asosiy o'rin egallaydi. Darhaqiqat, muloqat jarayonida "so'bekt – sub'ekt" aloqasi yuzaga keladi.

Subektlar o'rtasidagi munosabat: shaxsiy, insoniy munosabatlar, diolog shaklidagi munosabatlar, yetuk-ahloqiy munosabatlar va hokoza.

Turli munosabatlar haqida gapirayotib, ularning o'zaro bir – biriga o'tishi va birikishi xollari tez-tez uchrashini unutmaslik lozim. Shu sababli insoniy faoliyatning amaliy natijasini faqatgina sub'ekt-sub'ekt munosabatida ko'rib bo'lmasdan, balkim uni shaxslararo aloqa doirasida izlash kerak bo'ladi.

Ma'lumki, insonlararo aloqa natijasida axborot almashinuvi yuzaga keladi. Bunday axborot almashinuvi uchun hech bo'lmaganda ikki ishtirokchining muloqat harakati albatta javob harakatini talabqiladi: Savol javobsiz qolmaydi, iltimos rozilik yoki inkorni kutadi.

- Kim bu? – dedi nozikkina ovoz.
- Kimni chaqirib beray? – dedi Ravshan hafsalasizlik bilan.
- Hech kimni. Siz Avazovmisiz?
- Ha
- Ravshanjon akamisiz? Ravshon hayratdan esankirab qoldi.
- Ha nimaydi! – dedi dudug'lanib.
- Kechirasiz.... – notanish ovoz eshitildi.

- Sizmeni tanimaysiz. Men sizni taniyman. (O'.Hoshimov. 148).
- Kecha nega ketib qoldingiz Feruzaxon? – dedi Ravshan ovozi pasaytirib.
- O'zingiz birovni boshlabchiqdingiz-ku.
- Umi? – dedi Ravshan Tursunboyni eslab. – Suv ichgani chiqqan edi-da!
- Men uyaldim... - Feruzabir zum jimibqoldida, yana entikdi. –mayli, xayr.
- Shoshmang! – dedi Ravshan jonholatda.
- Qayerdan gapiriyapsiz?
- Yaqin.... – Feruza xo'rsindi. – Gastronom oldidan.
- Hozir chiqaman. Ketib qolmang, iltimos! (O'.Hoshimov. 150).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, muloqat tizimi mazmunli harakat jarayonidir. Ushbu jarayonda aloqa vositalarining ishtiroki alohida o'rin egallaydi. Binobarin, til belgisining ma'nosi faqatgina uning til tizimidagi o'rnibilan aniqlanmasdan, balki insoniy muloqat jarayonida yuzaga keladigan belgining o'zining tizimiy qobiliyatidir. Masalan, turli shaxslar o'z ijtimoiy tajribalarganisbatan, yagona bir so'zni turli mazmunga oid deb hisoblaydilar. Buning sababi ushbu shaxslarning turli ijtimoiy guruhlarga oidligidir. Ya'ni muloqathar xilijtimoiy sharoitlarda yuzaga keladi. Til belgilarining mazmuniturlicha bo'lishini, ayniqsa, yosh bolalar nutqida tez sezish mumkin, zero bolalar lug'atidagi so'zlarning mazmun chegarasi kattalarnikiga qaraganda anchagina tordir.

Nilufarning terlab, kir bo'lib ketgan yuzidan o'pib, saqichni uzatdim.

- Mana! O'rtog'inga ham ber...
- Urre! Katta otam jevachka obkeldila! Nilufar qo'limdan saqichni yulqib oldi-yu, kutub turgan o'rtog'I tamon yugurdi. Besh-olti qadam nariga borib to'xtadida, bir nima esiga tushgandek orqasiga qayrilib qaradi.
- Katta oda, buvim o'ldila... - dedi ko'zlarini pirpiratib.
- Nima? – Yetimseskanib ketdi: - nima deding? Nilufar chpgincha o'rtog'ining oldiga bordi. Ikkovlashiv yugurib ketishdi....

- Uyda kim bor? – dedi tomog'ini bo'g'ib kelayotgan allaqanday sho'rtang bir narsadan nafasi qaytib.
- Adam yo'qla, - dedi qizcha hamon uning bo'ynini qo'yib yubormay.
- Endi adam o'lalla-a.

Qizaloq bu gaplarni ko'zlarini katta-katta ochib shu qadar ishonch bilan aytdiki, Sherzod seskanib ketdi.

- Unaqa dema! Ertaga adang keladi.

Sengachi kattakon qo'g'irchoq olib keladi.

- Y-o'-o'-o'-o'q, – dedi qizaloq bosh chayqab, - Men bilaman, adam o'lalla! (O'.Hoshimov “Nurli dunyo”, 407).

Har bir kishida belgilarning mazmundoirasi kengayib boradi va bu uning ijtimoiy tajribasi natijasidir. Ijtimoiy tajribaning o'sishining o'zi ham shaxs tomonidan jamoa madaniyatining o'zlashtirilishi natijasidir. Buning barchasi muloqat mahsulidir.

Muloqat jarayoni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb hisoblanadi:

1. Muloqotga kiruvchi birinchi shaxs (u axborotni yetkazadi);
2. Muloqotga kirishuvchi ikkinchi shaxs (axborotni qabul qiladi va tahlil qiladi);
3. Muloqot, ya'ni kommunikatsiya maydoni (axborot berilayotgan vaziyat);
4. Axborotning o'zi;
5. Muloqot vositasi – axborot uzatish uslubi (Communicativi).

Muloqot doirasida yuzaga keladigan shaxslararo munosabat ob'ektsiz bo'lmasligi hammaga ravshan, chunki sub'ekt va ob'ekt o'zaro bog'liq tushunchalar, ularni bir-biridan ajratganholda qo'llash imkoniyati deyarli mumkun emas. Shuning uchun ob'ektlararo munosabat haqida gapirganda, ularning qo'llovchi shaxslar tomonidan idrok etilishi nazarda tutiladi.

Sub'ektlararo munosabatlar haqida so'z yuritilganda esa, ushbu munosabatlarning ob'ekt vositasida amalga oshishiga tasavur etiladi.

Ammo sub'ektlararo muloqatda ikki shaxsning birini sub'ekt ikkinchisini esa ob'ekt deb atashga asos bo'la olmaydi.

- Ha-a-a-ay, -dedi salmoqlab,
- Akun tepliqa quronman, deng?
- Endi qurmoqchiman.
- Akun gaz so'ropman, deng?
- Tiplutsani gaz bilan isitadi-da, ukajon! – dedim “Qaynim” gapini eslab.
- Ibi! – dedi u elkasini uchirib.
- Men sizga gazni qaydan olay?

Ichimdan chiqarib beraymi, oxe? Menga gaz yo'q! gazni davleniyasi kun sayin pasayeb ketibti! Bog'chaga bachalar sovuq qotgan, sizni teplitsangizga pamador pishgan! Shundaymi?

Yuqoridagi parchadan ko'rinib turibdiki ushbu savol-javobda ob'ekt na so'rovchini na javob beruvchini ayta olmaymiz. Aslida muloqat har bir sub'ekt ikki xil ishni bajaradi. Bir tomondan u belgidan ham suhbat e'tiborini ma'lum ob'ektga tortish uchun foydalanadi, boshqa tomondan esa, ushbu ob'ektga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Muloqot ishtirokchisi biror narsa haqida so'zlashi bilan u bu narsa haqida danday gapirayotganligini farqlash kerak bo'ladi. Demak, muloqat tizmini modal axborotga ham ega bo'ladi va ushbu turdagi axborot hamkorlikni yuzaga keltirishda muhim omil hisoblanadi.

Muloqotning tizimiy xususiyatlari haqida gapirayotib, ushbu tizimning harakatdagi hodisa ekanligini unutmaslik lozim. U doimiy taraqqiyotda. Muloqot dinamikasi uning muhimi, ishtirokchilari tarkibi, shakl va mazmun o'zgarishlarda nomoyon bo'lib turadi.

Albatta, shaxs jamiyatdan tashqari holatda bo'lmaydi, chunki insonning o'zi ijtimoiy hodisadir.

Muloqot – tom ma'noda ijtimoiy munosabatlar ko'zgusi, ularning zaminida paydo bo'ladigan voqeylik.

Lekin bu ikki hodisa o'rtasidagi aloqa o'ziga xosdir: u jarayon bo'lib, ma'lum ko'rinishdagi natija - "maxsulot" bilan tugallanadi.

Muloqot haqiqiy faoliyat, ijtimoiy munosabat esa-qatnashchilar esa o'rtasida aloqa turi va bu aloqa jamiyatning asosini tashkil qilib, insonlarning amaliy muloqot ijtimoiy munosabatlarga nisbatan turlicha sifat va son ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Insonlar muloqot turi ularning tafakkuri, hayot darajasi, ma'naviy ehtiyojlari, qaysi guruhga oidligi kabi hodisalar bilan bevosita bog'liq. U har doim o'zini boshqa shaxs bilan qiyoslaydi. O'z fikri va harakatlari "kuzgu"ga soladi. Nihoyat o'ziga yaqin "bizlarni topadi". Shaxs o'z hatti-harakatini baholab beradi: "Men kimman?" degan savolga javob izlaydi. U har doim o'zini boshqa shaxs bilan qiyoslaydi, o'z fikri va karakterlarini "ko'zgu"ga soladi.

O'.Hoshimovning "Bo'ydoqqa maslahat"ida ayrim shaxslarning uylanadigan yigitga maslahatlarida buni yaqqol kuzatamiz:

Behoqon: - Qarindoshdan qiz olganning padarigaming la'nat. E, O'g'lim! Siz so'ramang men gapirmay! E, attang, attang! Ikki orada o'g'lim kuyib ketdi! Xotini desa bizlar, bizni desa -xotini... O'ng quloq, chap qulog'ingiz bilan eshitib qo'ying: yoshidan o'ylaning.

Iloji bo'lsa, sapsim o'qimaganidan toping!... Eshitdingiz-a? Yosh bo'lsin. Sodda bo'lsin, gupgursdek baquvvat bo'lsin.

Tadbirkor: - Menga qara hov bratan ! iloji bo'lsa, millionerning qiziga uylan! Biznesning otasi nima? Pul to'g'rimi? ... Nishtyak yigitga o'xshaysan, bratan! Bir gap aytaymi? Qaynsinglim etilib turibdi. Zakonniy qiz.... Chap oyog'i kaltamas, o'ng oyog'i sal uzunroq, xolos.

Piyonista: - Nima? "Uylanmoqchiman" deysiz? Og'zingizdan shamol olsina!

Soqolingizkindigingizga tushib ketsayam uylanmang! Xotinni nima qilasiz? Xotin oldingiz nima-yu, tovuq boqdingiz nima? Ikkoviyam bir go'r! miyasida shamol "skvazniyak" bo'libyuradi. Tovuqni-ku ozmi-ko'pmi naf bor. Tuxum tug'adi. Avval tuxum tug'ib, keyin qoqog'laydi.xotinchi, vey kapikali ish qilmasdan quloqqa tepadi!... Gar-r-r-rantiya berib aytamanki, xotininmning

roparasidan ko'bra chiqib qolib, "Vish-sh-sh" deb og'zini ochsa, xotinim "tuf" desa bormi, ilon til tortmay o'ladi!

Muallif: - "Kengashli to'y tarqamas", deganlar. Yana boshqalar bilan ham maslahatlashib ko'ring! Qancha ko'p maslahatlashsangiz shuncha yaxshi! Sizga ham nasibqilgani bordir. Parvo qilmang, topiladi! Meni aytdi dersiz, bir yo'la pensiya oladiganiga uylanisiz. Kampirning nafaqasini e-e-eb yotasiz.

Yuqoridagi dehqon, tadbirkor, piyonista, mualliflar o'z nutqida o'zining "men" ekanligini ko'ramiz.

Bunday muloqatning ijtimoiy munosabatlari nisbatan turlicha sifatga son ko'rsatkichlariga ega ekanligini ko'ramiz. Insonlar muloqati turi ularning tafakkuri. Hayot darajasi, ma'naviy ehtiyojlari, guruhga oidligi kabi hodisalar bilan bevosita bog'liqdir. O'z navbatida muloqot ishtirokchisining qaysi sotsiumga oidligiga bog'liq ko'rsatkichlar, uning sifat ko'rsatkichlaridir. Hayot taraqqiyoti muloqot doirasini kengayishi, uning yangi turlari hosil bo'lishini taqozo etadi.

Muloqot shakli madaniy hodisa va shu sababli turli "madaniy guruhlarida" halq, etnos, qabila vakichik ijtimoiy guruhlarda turlicha udumlar, an'anaviy zitual qoidalar mavjud.

- Noxush xabar aytayotganim uchun xafa bo'lmaysan, bolam. Dedi ma'yus ohangda, - hozir radioda aytdi:

Angliya qurolichasining iti o'lib qopti.

- Suyak-puyak tiqilgandir-da, -dedim ensam qotib.
- Butun dunyoda ta'ziya e'lon qilishibdi, - dedi Said Ahmad aka.
- Ko'nglim buzilib ketayapti.
- Bog'dagiitingiz nomidan hamdardlik bildirib, telegramma yuboring, - dedim-da boshimni burkab oldim.

(O'.Hoshimov. 137).

Muloqotning tizimiy va ijtimoiy xususiyati shunda nomoyon bo'ladiki, unda bilish komunikatsiyasiya, tartiblashtirish kabi faoliyatlar mujassamlashadi. Muloqotning bilish faoliyati bilan bog'liq qismida kishilarning bir-birinitushunishi

va o'zaro ta'sir o'tkazishi mavjud bo'lib, kommunikatsiya axborot etkazishni ta'minlaydi. Albatta, bu faoliyatlar bir biridan ajralib qolmaydi:

Axborotni uzatish o'zaro ta'sir ko'rsatish bo'lmish interfaol (interaction) hosil bo'lishini taqozo etadi.

Tilshunosolim M.S.Kagan muloqot tizimini quyidagi sxema asosida tasvirlaydi.

CHIZMA

Ko'rinib turibdiki, muloqat tizimi bir necha sathli bo'lib uning qismlari o'zaro bog'langan, ularning bir-biridan ajralgan holda qarashning imkoni yo'q. ammo bu qismlar, qandayki ko'rinishda bo'lmasin, ularning mazmuni yagona bir harakat-insoniy faoliyat zaminida yuzaga keladi, voqeylikka aylanadi. Shu sababli muloqot va faoliyat hodisalari munosabatli o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Muloqotning ijtimoiy xususiyati shundaki, muloqot jarayonida shaxslarning o'zaro ruhiy, idrokli va emotsional ta'siri, hamkorligi yuzaga keladi: fikrlar, qarashlar, ruhiyatdagi umumiylik shakillanadi: odat, hatti-harakatlar yuzaga chiqadi, unda ijtimoiy munosabatlar aniqlashadi va shax tomonidan namoyon bo'ladi.

- Ming bor uzur. Hoji aka. – Kosagul shunday deb, shishalarni imijimidastol tagiga olib qo'yayotgan edi. Hoji aka sekin bosh chayqadi.
- Yo'q, yo'-yo', taqsir! –dedi dolda berib

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, nutqda yoki nutq parchalarida ahloq-odob, so'zlashish rasm rusumlari, nutqning muayan ehtiyojlari, so'zlovchi va tinglovchining yoshi, saviyasi va madaniylik darajasi kabilar o'z aksini topadi va bularning barchasi nutq tushunchaligi uchun ahamiyatlidir. Umuman ijtimoiy muhit, nutqda murojat shakillarida o'zining aniq ta'sitirini ko'rsatadi. Zero dono halqimiz, “mol egasiga o'xshaydi”, “qush uyasida ko'rganini qiladi”, “mushukning bolasi onasiga qarab miyovlaydi”, “ilondan-ilon, chayondan - chayon” diya bejiz

aytmagan. So'zlovchi va tinglovchining yoshiga ko'ra farqlanishi ham alohida-alohida jamiyatlar sifatida qaraladi.

Ular o'rtasida ancha tafovutlar mavjuddir.

- Voy mushuk bo'lmay itlarga talansin, o'sha shefing! Bo'g'otdan yiqilib mayib bo'lsin! Nima endi, dehqon bola orqasini silab qo'ysinmi, mushugingni?
- Endi oyijon, shefimiz ikki gapning birida "quruq qoshiq og'aiz yirtadi", deb turgandan keyin. (101)

So'zlovchi va tinglovchining ayol yoki erkak jinsiga mansubligi ham nutq jarayonida ahamiyatlidir.

- Voy, o'zingmisan, Dilya?
- Voy, Gulya! Bormisam, bu dunyoda? (quchoqlashib o'pishadilar). Ko'rishmaganimizga ming yil bo'ldiya! (174).
- Yaratganga shukronalar bo'lsin! – dedi qiroat bilan. – Muqaddas Safar sharafi kaminaga ham nasib ayladi. (155).

O'zbek xotin qizlari nutqiga xos "aylanay", "girgitton", "o'rgilay", "qoqundiq" kabi so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi.

Ular ko'proq keksa ayollar tomonidan qo'llanadi.

Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatlarini "voy" undovining qo'llanishi asosida ham oydinlashirish mumkin: Ma'lum bo'lishicha "voy" undovi bir qancha ma'no nozikliklarini ifodalaydi: Voy – 1 qattiq og'riq alam tuyg'usini ifodalaydi. – Uring Urmonjon aka! So'ying! Qonim oyog'ingizga to'kilsin. Voy desam inson emasman! A.Qahhor. Qushchinor.

2. Hayajon qo'rquv his-tuyg'ularni ifodalaydi. – Bu nima? Voy, qulog'ingiz orqasi ham ozgina qonabdi, - dedi Gulnor qo'rqib. (Yo'lchiga) Oybek Qutlug' Qon.

3. Hayrat, taajjub bildiradi.

- Voy o'lmasam! Shaytonlar, rosa o'xshatibdi! Oybek Qutlug' Qon.

4. G'azal –nafrat yoki achinishni ifodalaydi. Anzirat xola Sidiqjonga! – Voy satqai odam keting, nahot kishi shunday xotinni, shunday bolani qo'yib, bu yoqlarda yursa! A.Qahhor Qo'shchinor.

- Voy bechora! – dedi Gulsunbibibirdan. Oybek Qutlug' Qon.

5. Qayg'u-alam, istirob, afsus ifodalaydi. Feruza tushunmadi shekilli hayrat qotib qoldi. So'ngra esankirab so'radi?

- Voy, nega? Men qayoqdan bilay!

(O'Hoshimov. 151).

6. Xursandchilik ruhiy ko'tarinkilikni ifodalaydi. Kechqurin ko'cha eshigi taqilladi-yu, kampirning – voy o'rgilay, voy girgittan, - degan tovushi eshitildi. A.Qahhor Qo'shchinor!

Ayollar nutqi hudud jihatdan ham o'ziga xoslikka ega bo'lib, qishloqlarda yashovchi ayollar nutqida "o'lsin", "men o'lay", "voy o'lay", "joning o'lsin" kabi so'zlar ancha faol qo'llanadi.

O'zbek tilida shunday iboralar borki, ular faqat erkaklar nutqidagina uchraydi. Jumladan, "burnini yerga ishqalamoq", "boqboqangdan akang", "dabdalasini chiqarmoq", "jag'ini ezib qo'ymoq", "otimni boshqa qo'yaman", "kuling o'rgilsin", "haromi", "yuziga tuflamoq" kabi iboralar, asosan, erkaklar nutqida qo'llanishi bilan o'zaro xoslik kasb etadi.

- Hammayoqni rasvo qilding-ku, haromi! – dedi bo'kirib.

.... Bir mahal-voy o'lay! Voy o'lmasam!-degan xitob keldi. – Ha-a-a! Guldek eriga o'lim tilash qanaqa bo'larkan dedim ichimda.

.... Erkak kishining gapi bitta bo'ladi! O'zini osmagan nomard! – dedi-yu, chiqdi-ketdi.

O'zbek erkak va ayollar nutqining leksik, frazeologik jihatdan xoslanishi, ayniqsa, qarg'ish hamda so'kinishlarda yanayam yaqqolroq nomoyon bo'ladi.

O'zbeklarda qarg'ish muallifi asosan ayollardir. Ular jahillari chiqqanda, ko'pincha, qarg'amay turolmaydilar.

Bolalarini, turmush o'rtoqlarini, do'stona dushmanini erkak uchun bo'lsa ham qarg'aydilar. "Juvanmarg bo'lsin", "og'zidan qoni kelsin", "uyi kuysin", "sochi taxtada taralsin", "oti o'chsin", "xudodan topsin", "O'g'il – qizining huzurini ko'rmasin", "tuxumi qurisin" va h.k.

- Hoy, mo'ylov! Xudodan topkur! Bolaga qarasang o'lasanmi? Uch yuz dollorni bekorga olayapsanmi, to'nka. Biring ikki bo'lmay ko'chada sang'ib yurgan edingku (140).

Ma'lumki o'zbek halqi uzoq tarixga ega bo'lib o'tgan davr moboynda arab, fors-tojik keyinchalik rus tilining ta'siri doimo seziladi, ularning ta'siri nutqda ham o'z ta'sirini o'tkazganligi barchaga ayondir. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab bu holat rus tili va sovet internotsionalizmi taziyyida rivojlandi. Buning ta'siri hozirgacha o'z ta'sirini o'tkazib kelayotganini kuzatishimiz mumkun.

- Univermagda ishlasangiz koleega ekanmiz. Konkret tuzamiz. Biznes qilamiz. Bugun vixodnoy. Nevaramizning den rajeniyasi. Yuring siz ham. Anjelika babushkasini juda yaxshi ko'radi. (177).

Shu o'rinda "Turkuston" gazetasida berilgan bir parchani aynan keltirishni lozim topdik.... "Neujeli".

- Mehmonlardan hozirgi istiqlol davrida ham ba'zi yoshlarning nutqida rus so'zlarining qo'llanishi bu tilimizning sofligiga putur yetkazayotganligi to'g'risida gapirib qoldi.
- Ana, hozir o'zingiz ham qo'shdingiz, -dedi mehmonlardan biri jonlanib.
- Qachon nimani qo'shdim? – hayratlanib so'radi ammam.
- Hozir.
- Nima dedim? – tushunmadi yana ammam.
- Axir, hozirgina "neujeli" degan so'zni ruscha so'zni qo'shib ishlatdingizku!
- Neujeli!

Hammamiz kulib yubordik. Ammam bizga hayrat tikilib ohista og'iz ochdi.

- “Neujeli” ruscha so’zmi?
- Ha.
- Neujeli bo’lishi mumkun emas.
- O’zbekchada “nahotki” deyiladi. – bilog’onlik qildi yana bir mehmon.
- Gulshoda. O’zing ayt-chi, “neujeli” degani ruscha so’zmi? Bular meni laqillatishayapti: ustimdan kulishmoqchi.
- Ha bu ruscha so’z, - dedim.
- Neujeli, buni bilmagan bo’lsam? – barmog’ini tishlab qoldi ammam.

Muloqot jarayonida nutqning ixtisoslashuvi alohida o’rin egallaydi. Bu lisoniy vositaga nutqiy ifoda paralingvistik, ekstrolingvistik hodisalar bilan bevosita aloqadadir. Nutqning ijtimoiy iqtisoslashuvi nihoyatda rang-barangdir.

1. Yoshi o’tib qolgan qariya nutqi.
 - Manba? –dedi “duoguy” salmoqlab.
 - Shu jil ikkam jetmishga kiranman.
2. Madaniyatsiz, yengiltabiat, ma’sulyatsiz, uyatsiz, shallaqi ayol nutqi? (131).
 - “Bratan”, dedim – Nargizochkadan xabar olishim qiyin. Ishlarim novalom, - dedim.
 - Xotirjam bo’ling, nargizachkaga o’zim otalik qilaman, - dedi. Uch kun mehmon bo’ldim. Kr-r-utoy mujik ekan! Molades.
3. Savodsiz organ xodimining nutqi:
 - Pastradavshiy kim?
 - Manabu! – Botir menga imo qildi.
 - Munutochku, grajdanii. Ta-a-k! Siz aralashmang. Pastrodavshistning o’zi gapirsin (12).
4. Professor nutqi. – Uzr, ming rahmat. Vaqtliroq ishga borishim kerak. Men borolmayman. O’zingiz, bilasiz davlatning ishi....
5. Mahallaning bekorchi tajang vakili:
 - O’ aka, prapisir bo’lsangiz o’zingizda!

Xoliq darvoza tomonga iyagini cho'zib baqirdi. O'tgan safar ham oshga chiqmadingiz, bilib qo'ying, o'tabushkashmiz! O'lib ketib qolsangiz tobingizni mahalla ko'taradi....

- Bu pronisarlaring odammas ekan-u –dedi. Qo'lini paxsa qilib. – Vey, demog'ingga bedonam kitobingga nosvoy o'rab sotay! (119).

Ta'magir xodimning nutqi:

- Blakka yo'q, amaki! –dedi niyatimni eshitib. – Kompyuter ham ishlayapti. K tomu je ertaga Dilyaning tug'ulgan kuni. U menga "Shonel" nadarka qilgandi!
- Shinel padarka qilgan bo'lsa, armiyaga borganmisiz, deyman?
- Qanaqa shinel! Shanel! Fransuzkiy duxi! Tushundingizmi amaki? Bir flokoni ellik dollor turadi! (28).

O'z navbatida nutq so'zlovchi va tinglovchi nuqtai nazaridan ham ixtisoslashadi. Jumladan, ayol va erkaklarning qarg'ish hamda olqishi ham farqlandi:

“Jumonmarg”, “Iloyo qur'on ursin”, “qur'on urmasa rozimasman”, “arvoh ursin”, “bolalaring yetim qolsin”, “bolalaring chirqillab ko'chada yursin”, “bo'yginangga girgitton”, balli-balli, “azamat yigitning ishi”, “ahmoq”, “kovon, uyatga qoldirma”....

Nutqning muloqot mavzu tabiatiga ko'ra ixtisoslashuvi (suhbat, munozara, bahs, savol-javob, ma'ruza, hikoya va hk.).

Nutqning yana boshqa turdagi ijtimoiy ixtisoslashuv shakillarini va turlarini sanash mumkun: Ammo shu yuqoridagilar ham ularning turi ko'p ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bundan tashqari, bu turlar o'zaro birikuvlarda cheksiz xil va ko'rinishlarda nomoyon bo'ladi.

Nutq sharoiti nihoyatda murakkab butunlik bo'lib, bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Kommunikator, informat – bu so'zlovchi, tinglovchi adresatdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, nutq ishtirokchilarining millati, jinsi, yoshi, kasb-kori, madaniy saviyasi va h.k. keskin ravishda farq qiladi.

Demak milliy xususiyatlar, jins, yosh, kasb-kor, madaniy saviyaning ham nutq jarayonida o’z o’rni bor. Masalan, “sen” va “siz” olmoshlarining milliy muomala madaniyatimizda tutgan o’rni haqida so’z yuritadigan bo’lsak. Avvalo dunyo halqlari nutqida bu so’zlarga munosabat masalasi haqida to’xtalib o’tadigan bo’lsak. Chunki turli millat vakillarining bu so’zlarga munosabati rang-barang va o’ziga xos bo’lib, bulardan voqif bo’lish foydadan xoli emas.

Jumladan, Shvetsiya va Polshada begonalar xususan katta yoshdagi kishilarni yoki boshliqlarni “siz”lash odob borasida emas. Buning o’rniga uchunchi shaxs ishlatiladi. Masalan, “Doktor menga yordam bermoqchimi?” “Xolamni kuzatib qo’yish mumkunmi?”, “Ovqatga marhamat qilish lozim”.

Italiyada esa “siz” olmoshi o’rnida “ular” ishlatiladi. Ya’ni “ular yozayapti” deyilsa, “siz yozayapsiz” ma’nosida qabul qilinadi.

Ingiliz tilida nutq jarayonida hozir “sen” olmoshi o’rnida “ular” ishlatiladi. Ya’ni “ular yozayapti” deyilsa, “siz yozayapsiz” ma’nosida qabul qilinadi.

Ingiliz tilida nutq jarayonida hozir “sen” olmoshi nutqda umuman ishlatilmaydi. Bu so’z XVII asrga kelib, o’z o’rnini to’liq “siz” olmoshiga bo’shatib bergan. Hozirgi kunda inglizlar hatto itlarini ham “siz” olmoshiga bo’shatib bergan. Hozirgi kunda inglizlar hatto itlarini ham “siz” deb chaqiradilar.

Rus halqi og’zaki nutqda “siz”ga nisbatan sen ko’proq ishlatiladi va bu ular uchun me’yyor hatto tabiiy hol sanaladi. Shuning uchun bu millat vakillari eng yaqin kishilarini (ota-onasiga) ham “sen” deb murojaat etadilar. “Siz” esa ko’pincha uzoqlik, begonalik belgisi sifatida qabul qilinadi.

O’zbeklar nutqida “sen” va “siz” so’zlari miqdor jihatidan deyarli teng qo’llaniladi.

Chunki kattalar aksariyat hollarda kichiklarni “sen”lasa kichiklar kattalarni “siz”laydilar.

- Adajon! Men katta bo’lsam, sizga o’xshagan bo’laman-a?

- Albatta –da ota o'g'il. Senga kim aytdi?
- Ayajon aytdila! Katta bo'lsang, sen ham adangga o'xshagan axmoq bo'lasan dedila! (2.166).
- Opajon, "oh" beying....
- Yo'q, - dedi ayasi - o'zi tiling o'yilib yotibdi, Shohruhjon... shirinlik yema! – adajo-o-n... adasi ham ko'nmadi.
- Dado-o-ov...
- Dadajo-o-on, oh beying... (2.220).

Umuman olganda, o'zbek muloqat hulqini kim-kim bilan qachon qanday sharoitda qaysi maqsadlarda qanday gapirishi lozimligini bilish o'ta zarurdir, chunki bu ham bizning o'zligimizning, milliyligimizning tarkibiy qismlaridan biridir. Muloqot hulqi inson qolaversa, milliy o'zligini namoyon qilishining muhim omillaridan biridir. Zero, suqrotdan "dunyoda eng qiyin va og'ir ish nima?" – deb so'raganlarida olim: "so'zlash", -deb javob bergan ekan.

Avvalombor, bugungi kunda gap qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni o'rganish, o'zligimizni anglab yetish, boshqacha qilib aytganda, ma'naviyatimizni yuksak darajaga, ko'tarish haqida biror elat, ma'naviyat tildan, til madaniyatdan, til madaniyat esa muomila madaniyatdan boshlanishiga etiborni qaratish kerak bo'ladi. Muomala madaniyatining debochasi esa salomlashish hisoblanadi. Salom berish kundalik hayotimizdagi eng ko'p qo'llaniladigan urf bo'lib, har bir so'zlovchi, avvalombor, so'zini salomdan boshlaydi. Qadimdan har ikki mo'min musulmon uchrashib qolsa, ular bir – biriga do'st yona dushman bo'lishidan qat'iy nazar bir-birlari bilan salomlashishi shart hisoblangan. Bu haqida quroni karimda:

- bu hayoti dunyoning harsasini istab sizlarga salom bergan kishiga: "sen mo'min emassan!" demanglar... ya'ni salomga doimo alik olish shart deyilgan. Agar tarixga nazar soladigan bo'lsak, qadimda salomlashish usullari barcha elatlarda xilma-xil bo'lganini ko'ramiz.

O'z tariximizga nazar solar ekanmiz, o'zbek halqi ham o'tmishda naqadar boy, salomlashish uslublari esa qanchalik xilma-xil va katta e'tiborga ega bo'lganligining guvohi bo'lamiz.

Masalan, ajdodlarimiz mehmonni "hush kelibsiz, kuningiz hayrli bo'lsin!" deb orziqib kutilgan mehmon bilan salomlashganda "ko'zingiz quyoshdek oydin bo'lsin", shoh, xon va amaldorlar bilan salomlashganda "Huzuringizga ta'zim bajo ayladim!", "martabangiz yanada ulug' bo'lsin!" kabi iboralarni qo'llashgan.

"Muloqot" aksariyat hollarda virbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so'zsiz, nolisoniy vositalar (imo-ishora, har-xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish va bir birining ta'siriga ko'ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi.

Nutqiy muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalarning birgalikda, hamkorlikda ishlatilishi tushuniladi. Bu nutqiy muloqotning eng birinchi o'ziga xosligidir. Chunonchi, "Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu" verbal iborasini qo'llagan shaxs, albatta shu verbal formulaga mos ma'naviy-madaniy saviyaga tegishli yoshga, nasl-nasabga, kiyim boshga ega bo'lishi bilan birga, bu iborani maxsus imo ishoralar bilan hamkorlikda va maxsus tinglovchilarga nisbatangina qo'llay oladi.

Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu! - dedi ta'zim qilib.

- Vaalaykum assalom! – javob berdi podshoh....

- Olampanoh! –debdi ta'zim qilib. – muborak bo'lsin, ko'p xosiyatli tush ko'ribsiz! (2.110).

Ushbu nutqiy faoliyat lisoniy, yetuk, estetik, milliy, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy, kauzal va hakozo omillar majmuasi bilan uzviy bog'liq.

- Men o'zbekman, meniki ingilizcha "no", deb javob berdi yigit....

- Yordam bermasang, holimiz harob. Ringga chiqib uch raund turib bersang bas, yuz ming dollor olasan! – deyishibdi.

- Dollaring o'zingga siylov! – debdi yigit. – biz hojatbaror halqmiz, ko'rsat: o'sha barzangingni! (2.217).

- Avaz! Avazchik! Turoqolsinlar endi! O'zimning polvon bolamdan! "Adajoning qani" deysizmi? Adajoningiz ishga ketdilar. Adajonisichi, Avazjonga-chi ka-a-attakon shakolod olib keldilar. Avazjonchi, adajonisiga o'xshagan paxlovon yigit bo'ladilar. Voy, ishtoncha yana ho'l bo'pqoptiku! Mayli, hozir almashtiramiz-da voy o'zimning toychog'im!

Eridan hafa bo'lib turganida, - Avaz! Hoy Avaz! Tur o'rningdan yolpayib yotmay! Sening bog'changga men borishim kerakmi? "Ada"lama! Adang ishga ketdi-da, go'rga borarmidi? Iye, ishtong yana ho'lmi? Siyaman desang, o'lasanmi? Ho'kkizdek bola! Arillama!

Otangdan nima rohat ko'rdim-u, sen nima karomat ko'rsatarding! (2.219).

Muloqotda har bir belgi (xoh lisoniy, xoh nolisoniy bo'lsin) shakl va mazmunda assimetrik emas, simmetrik bog'langan bo'ladi. Bitta shakl aniq holatda bitta mazmunni ifodalaydi va bir mazmun faqat bitta muloqot tizimidagina qo'llanishi mumkun.

Chunonchi, sochi yelkasiga tushgan qora ko'zaynak taqqan guldor ko'ylakli, jnsi shim, krassovka kiygan yigitning qo'lini kaftini ochib, yenkayib, ibo bilan, samimiy ravishda "Assalomu-alaykum!" lisoniy iborasini qo'llash mutlaqo aqlga sig'maydi.

- Xello, mister Ahmadiy, bu o'zingizmi? Ay lav yu! Yaxshi yuribdilarmi? Narigi tomondan "Alyo-yo-yo, Malika Turandotovna!" – degan chiyildoq ovoz keldi.

Zero salomlashishni ifodalovchi lisoniy paradigmada:

- Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakatuhu!
- Assalomu alaykum!
- Assalom!
- Salom!
- Salom alaykum!
- Xillo!
- Privet!

- Salyut!

kabilar turli mavqeida turadi va ular salomlashish hodisasining lisoniy ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu siroda lisoniy ramzlarning shakl va mazmun nomutunoslibligining yorqin ifodasini ko'ramiz. Ammo etnosotsio-situativ belgilangan muloqot jarayonida bu paradigma a'zolaridan istagan birini tanlashga hech qanday imkon yo'q. muloqot jarayonida, aniq muloqot tizimida ulardan bittasidagina kela oladi xolos. Nutqiy muloqotga qo'llaniladigan lisoniy ramzlar ko'p ma'nolikdan (polisemiya va omonimiyadan) ko'p shakillikdan, sinonimiyadan xoli bo'ladi. Imo-ishora, mimika, badan harakatlari, ovozdagı turli holatlar kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qo'shimcha vositalar sanaladi va ular aloqa-aralashuvda ma'lum axborotni uzatish, mazmunan to'ldirish, aniqlik kiritish kabi vazifalarni bajaradi. Kishi jonli so'zlashuv nutqida ma'lumotni qisqa va lo'nda ifodalashda, fikrning ematsionalligi hamda ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo'lgan noverbal vositalardan foydalanadi. O'zbeklarning aloqa-aralashuvida ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qo'l, bosh, yelka, gavda, yuz, harakatlari, ovozning baland-past, cho'ziq, to'xtalib talaffuz qilinishi orqali ham ma'no ifoda etiladi.

- Qo'l harakati orqali mensimaslik:

- Hammasini bilman. Aljımay o'ling! – beliga qo'lini qo'yib, eriga tanbeh berardi.

- Chol ensasi qotib, qo'l siltadi-da, hech narsa demasdan havli tomonga yo'l oldi.

- Arazlash:

- Voy, sharmanda-a-a!! – dedi qoqshol qo'llari bilan yuzini yumdalab. – voy, bevafo! Shuncha xiyonat qilganmisiz, mengina, a?!

- Endi ... Yoshlikda bo'lganda-a, kampir-dedi chol yerga qarab. (2.211).

- Lab harakati orqali:

- nopisandlik:

- Kampir, - dedi, - buyog'I shartimiz ketib, partimiz qoldi. Bir-birimizdan sir ham qolmadi o'zi. To'g'risini ayt: biron marta chakki qadam bosganmisan!

Kampir bir savuqqonlik bilan cholga qaradi. Labini birib, humrayib, teskari o'grildi. (2.112).

Umuman muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ba'zi hollarda noverbal vositalarsiz fikr yalong'och mantiqiy jihatdan tushunarsiz, psixolik jihatdan noto'g'ri bo'lib qoladi.

Paralingvistik vositalar kommunikativ xususiyatga ko'ra quyidagicha guruhlarga bo'linishi mumkun.

Fonohion paralingvistik vositalar. So'zlovchining o'z fikriga yok suhbatdoshiga ijobiy, salbiy munosabatda ekanligi fikr ifodalashda so'zlarni qanday talaffuz etishidan ovozning ohangidan ma'lum bo'ladi. Ovozning pasayishi yoki kuchayishi: pauza bilan yoki surunkali: yo'g'on, ingichka ovozdan gapirish, so'zlash jarayonida ohang hususiyatlari aloqa-aralashuvda ma'lum axborot beruvchi qo'shimcha omillar sanaladi.

- Auyon! – dedi starshina rostmana bo'g'ilib, - quyon erkakmidi, urg'ochimidi?

Boyadan beri chidab o'tirgan "Tarasha"ning tajangligi tutib ketdi shekilli, shartta o'rnidan turdi.

- Xulosa! –dedi qo'lini paxsa qilib.

- Xulosa quyon edi! Bir oyog'i cho'loq edi! Bir ko'zi g'ilay edi.

- Grajdantin! – starshina chaqqonlik bilan o'rnidan turib ustimizga bostirib kela boshladi. Ammo xona o'rtasida taqqa to'xtab qoldi. Barkoshdek yuzining markazida ko'rinib-ko'rinmay turgan tugmachadek burni qimirlab ketgandek bo'ldi. Xavoni bir ikki xidladi-da, g'oyibona iljaydi.

- Yigirma olti! – dedi tantana bilan.

- Yigirma oltinchi porjveyn! – gurs-gurs yurib borib, stol ustidagi telefon go'shagini yulqib ko'tardi.

- Alyo, hushyor xonami? Operupolnomochinniy Eshboyev gapirayapti...

- Qo-o-och! – “Tarasha” shunaqangi chinqirdiki, xona jaranglab ketdi. – qochib qol! – dedi-yu, o’zini eshikka urdi. Oyog’im ostida yotgan parkomga chang solib, man ham ketidan tashlandim. (1.17).
- Nima? Yozmaysiz? Tossy, kak yozmaysiz. Nima? Nima dedingiz? Yana bir qaytaring! “Men incubator tuzatadigan usta emasman”, dedingizmi? Kim inkibator? Nega ayol kishini haqorat qilasiz? Nima haqqingiz bor? Naxoya! Pisaka, neschistniy! Ma, zajigalkang bosh-sh-shindan qolsin. (1.21).
- Labbay, ishdaman.
- Allo, kim bu?
- Assalomu alaykum. Kechirasiz, nima kerak sizga?
- Kim bu o’zi?
- Uzur, kimni chaqiray?
- Kim bu, deb so’rayapman?
- Kim kerak, ahir?
- Sendan so’rayapman: kimsan?
- E, bor-e, o’zing kimsan?
- Eshsh-sh-sh-ak!
- Tanishganimdan hursandman, ammo bu yerda sizning qavmlaringiz yo’q. xix! (2.215).

So’zlavchi ham, tinglovchi ham o’z nutqini va tinglash jarayonini paralingvistik vositalar- turli xil harakatlar, imo-ishoralar bilan birga olib boradi. Hatto kitob o’qiyotganida ham tinglovchi, ya’ni kitobxon goh qoshlarini chimiradi, goh jilmayib qo’yadi, gohida yuziga ajablanganlik belgilari sezilib turadi, gohi yig’laydi. Bularning barchasi paralingvistik vositalardir.

O’zbek erkak kommunikantlari uchun xos bo’lmagan paralingvistik vositalar sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkun:

- Qosh uchirib, chimirib gapirash:
- Noz qilishni ifodalovchi ko’z suzish:

- Sababsiz og'izni to'sib gapirish:
- Hayronlik, bexabarlik, mensimaslik ma'nosida lab burish:
- Achinish ma'nosida tilni tishlab, boshini qimirlatish:
- O'pishib ko'rishish:
- Boshini boshiga qo'yib cho'qishtirish:
- Jimjilog'ini labiga tekizib, uyalish, yerga qarab turish:
- Ko'rsatkich barmog'ini iyakka qo'yib o'y surish:
- Suhbatlashib turganda o'nga yoki chap tamonga bir siltanib qayrilib va boshini xiyol pastga egib suhbatdoshdan arazlash:
- Kamunikat bilan o'ta yaqin masofada turib so'zlashish.

O'zbek ayollari komunikatlari uchun xos bo'lmagan paralingvistik vositalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkun:

- Komunikatning yuziga tik boqib turib gapirish (tinglash):
- Qo'lni arra (paxsa) qilib gapirish:
- Qo'lni "chars" ... etkazib urub, siltab mahkam qisb so'rashish:
- Ichkilik ichishga ishora ma'nosida tamoqqa chertish:
- Baland ovozda "xo-xo"lab kulish:
- Bosh barmoqni orqaga qayirib "men" ma'nosida ko'kragiga ishora qilish:
- Muhabbat izhori ma'nosida "do'st" deb ko'krakka urish.

Paralingvistik vositalar muloqot xulqida komunikandlarning jinsiga xosligi bilan birga, ularning muloqot xulqiga ham o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, o'zbeklar muloqot xulqida paralingvistik vositalarning faol, qo'llanishi ularning muloqot xulqi uchun xos bo'lgan muhim belgilardan biridir:

So'zlovchi tinglovchi holatini, nutq jarayoniga munosabatini uning ko'zlaridan, yuzidan bilinadi. Adresantning jonli hatti-harakatlari paralingvistik vositalari: ovoz temori, qosh chimirishi, qo'l harakati, yuz ifodasi va h-klar. Tinglovchi diqqatini unda tortishga adrisatni zerikishdan saqlashga xizmat qiladi.

Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, paralingvistik vositalarning me'yordan ko'pligi ham zararlidir: me'yordan ko'p hatti-harakatlar, imo-ishoralar

tinglovchi diqqatini chalg'itadi, uni tinglovchiga emas balki tamoshabinga aylantirib qo'yadi.

Nutq o'z maqsadiga erisha olmaydi. Shuning uchun adresat xususan, ma'ruzachilar, o'z nutqlari mavzusi, uning tayanch tushunchalari, algaretni haqida o'ylaganda "ijro payti"dagi paralingvistik vositalarni o'ylab ishlatishlari zarur.

Aksariyat hollarda notqlarning nutqida ovoz memori o'qish tezligi, qo'l yoki bosh harakatlari, tana harorati kabi paralingvistik vositalar nutq mazmuni, maqsadi, tinglovchi saviyasi va holati bilan muvofiqlashtiradi.

Shuning uchun paralingvistik vositalari nutqni jonlantiruvchi, uning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida hisobgan olinishi, o'rganilishi, ommolashtirilishi lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilib aytganda, muloqot "ijtimoiy" shaxslarning o'zaro aloqasi va hamkorlik harakati kechadigan jarayondir. Ushbu jarayonda fikr almashuvchi yuzaga chiqadi. Axborot almashinuvi uchun hech bo'lmaganda ikki ishtirokchining muloqat harakati albatta javob harakatini talab qiladi. Muloqot doirasida yuzaga keladigan shaxslararo munosabat ob'ektsiz bo'lmaydi.

Muloqotning tizimiy xususiyati shundaki, u doimiy taraqqiyotda, muloqot dinamikasi, uning muhuti, ishtirokchilari tarkibi, shakl va mazmun o'zgarishlarida namoyon bo'ladi.

Muloqot tom ma'noda ijtimoiy munosabatlar ko'zgusi va ularning zaminida paydo bo'ladigan voqeylik.

Muloqotning ijtimoiy xususiyati shundaki, muloqot jarayonida shaxslarning o'zaro ruhiy e'tirofli va ematsional ta'siri, hamkorligi yuzaga keladi, fikrlar, qarashlar, ruhuyatdan umumiylik shakillanadi: odat, hatti-harakatlar yuzaga chiqadi, unda ijtimoiy munosabatlar aniqlashadi va shaxs tomonidan namoyon bo'ladi.

Nutqiy muloqotda ramzning ramizligi ham ancha shartli xarakterda bo'ladi. U ma'lum darajada yo'qolgan bo'lishi mumkin, yoyinki, boshqacha mazmun-mohiyat kasb etgan bo'lishi ham mumkin.

Til ramzlari uchun ontologik xos bo'lgan shakl va mazmun nomutonosibligi nutqiy muloqotda yo'l qo'yilmas hodisadir. Muloqotda ham bir belgi xoh lisoniy, xoh nolisoniy bo'lsin shakl va mazmunda assimetrik emas, simmetrik bog'langan bo'ladi. Bitta shakl aniq holatda bitta mazmunni ifodalaydi va bir mazmun faqat bitta muloqot tizimidagina qo'llanishi mumkun.

Ola-bula kiyingan, g'ayri oddiy ko'rinishdagi, madaniyati past, dunyo qarashi o'ta sayoz, tarbiya ko'rmagan odamning qo'lini ko'kragiga qo'yib ta'zim bajo keltirib "Assalomu alaykum va barakatuhu!" lisoniy iborasini ishlatishini ko'z oldimizga keltira olmaymiz.

Shu o'rinda professor Sh.S.Safarov, G.Toirovalar tomonidan ketirilgan fikr va muloqot paradigmalarini aynan keltirishni lozim topdik.

... Nutqiy muloqot jarayonida lisoniy ramzlar lison uchun xos bo'lgan lisoniy o'ziga xosliklarni cheklab, boshqa ikkilamchi ijtimoiy sun'iy semiotic sestemalar-sof semiotik sistema belgilari xususiyatiga ega bo'ladi. Tom ma'noda haqiqiy belgi ma'no, mohiyatini kashf etadi. Muloqot jarayonida muloqotning boshqa komponentlari chunonchi, kiyinish, tana a'zolarining harakat holati, imo-ishora bilan bir qatorda lisoniy ramzlar ham sof ramz sifatida qo'llaniladi. Muloqot jarayoni uchun boshqa komponentlarga nisbatan "kiyinish tili", "imo-ishora tili", "estetika tili", "ko'rgazmalik tili" iboralari bilan birga "tilning tili" ham teng huquqli kompanent sifatida ishlatiladi.

Nutqiy muloqotda lisoniy ramzlar qo'llanishining o'ziga xosligi ham ana shundadir. Nutqiy muloqot tizim tarkibi uning qismlari orasidagi munosabat, ya'ni muloqot nutqi paradigmasi lisoniy paradigmadan tomoman farq qiladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkun.

1-jadval

PARADIGMALAR

MULOQOT PRADIGMASI

Lisoniy pradigma	Lisoniy pradigmadan tanlangan birlik	Nolisoniy pradigmalaridan olingan birliklar
Assalomu va alaykum va rahmatullohu va barakatuhu	Hello	Yoshi: 18-25
Assalomu alaykum!		Kiyinish: muloqot evropacha
Assalom!		Qomat: tik
Salom!		Bosh: orqaga tashlangan.
Privet!		Qo'l harakati: o'ziga xos
Solrot!		Tinglovchilar: yoshlar, tengdoshlari
Hello		Qo'llash o'rni: norasmiy o'rni

2-jadval

PARADIGMALAR

MULOQOT PRADIGMASI		
Lisoniy pradigma	Lisoniy pradigmadan tanlangan birlik	Nolisoniy pradigmalaridan olingan birliklar
Assalomu alaykum!	Assalomu aliykum va rahmatullohi barakatuhu	Yoshi: 40-50
Assalom!		Kiyinish: to'liq milliy
Salom!		Qomat: bukulgan
Privet!		Bosh: egik.
Solrot!		Qo'l harakati: o'ng va chap qo'llar ko'krak
Hello!		ustida ustma ust qo'yilgan
Assalomu alaykum va rahmatullohu barakatuhu		Tinglovchilar: kattalar, tengdoshlari Qo'llash o'rni: neutral.

Xulosa

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuzaga kelgan giosiyosiy muhit til siyosati va til ta'limiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazdi. Keyingi yillarda tadqiqotchilar diqqatini o'zaro fikr almashishi, aloqa-munosabat jarayonining tadqiqi, ijtimoiy nutq tabiati o'ziga ko'proq tarmoqda. Buning asosiy sababi, asosan, millatlararo, aloqalarning kuchayishidir.

Muayan xolatda ma'lum bir axborotni tinglovchiga yetkazish uchun til tizimida mavjud bo'lgan bir necha teng qiymatli hodisalardan birining qo'llanilishi ko'p hollarda nolisoniy omillar nutq sharoiti, vositasi, muloqot jarayoni so'zlovchi va tinglovchining kontakt va distant holati, bir-biriga munosabati, milliy-madaniy, yosh, jins kabi o'nlab omillar bilan bog'liq bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyoti tilning ijtimoiy vazifasining ortishiga olib keladi, bu o'z navbatida nutqda nomoyon bo'ladi.

Rivojlangan jamiyatda tilning lug'at tarkibi ortib borishi nutqqa o'z ta'sirini o'tkazishiga olib keladi.

- Qo'shma halqlar tillarining bir-biriga o'zaro ta'siri ortishi natijasida u muloqotda o'z aksini ifoda etadi

Adresantning jonli hatti-harakatlari, ovoz temori, qosh chemirishi, qo'l harakati, yuz ifodasi va h.k.lar tinglovchi diqqatini unga tortishi adresatni zerikishdan saqlashga xizmat qiladi.

Paralingvistik vositalarning me'yordan ortishi zararlidir. Muloqot me'yori buzulishiga olib keladi.

Lisoniy simiotik sistema boshqa sistemalardan jiddiy farq qiladi.

Muloqot jarayonida axloq-odob, so'zlashish, rasm-rusumlari, nutqning muayyan ehtiyojlari, so'zlovchi va tinglovchining yosh, saviya, madaniylik darajasi kabilar o'z aksini topadi va bularning barchasi nutq ta'sirchanligi uchun ahamiyatlidir.

Kishi nutqiy muloqotga kirishar ekan va muloqot qaysi jamiyatda voqeanishini bilishi zarur. Zero, har bir jamiyatning nutq shtamlari, muloqot doirasi va mavzusi, leksikasi o'zaro xosdir.

Ijtimoiy muhit, ayniqsa bolalardagi ijtimoiy muhit nutqda, murojaat shakllarida o'zining aniq ta'sirini ko'rsatadi.

Milliy istiqlol o'zbek millatining muhim shakllantiruvchi omillaridan biri, belgisi sifatida o'zbek tili yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bugun o'zbek tilining mavqei va ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "O'zbek tili o'zbek millatining ruhidir". Shuning uchun tilimiz, o'zbek nutqi milliy mafkuraning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida butun davlat va jamiyat diqqat-e'tiboridadir. O'zbek tili o'zbek millatining, O'zbekiston ma'naviyatining tarkibiy qismiga aylangan. Bu esa o'z navbatida qadriyatlarimiz, jumladan, tilimizning qolaversa nutqimizning yangi taraqqiyot bosqichidir.

Milliy tilimiz, milliy nutqimiz, milliy ma'naviyatimiz va mafkuramizning tarkibiy qismi sifatida yuksalib boradi.

Har qaysi millat mavjudligining, rivojlanayotganligining asosiy belgisi bo'lib faqatgina bir xil xizmat qiladi, bu ham bo'lsa so'zlovchining o'z ona tilidir. Halqlarning o'z madaniyatini bir tilda rivojlanishga intilishi tabiiy xol bo'lib, har bir manaviyatni faqat milliy til asosida erkin, mustaqil va tez sur'atlar bilan gullab-yashnatish mumkun natijada o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan mustaqil huquqiy milliy madaniyatli halq jahon miqyosida juda katta obruga ega bo'ladi.

Istiqloldan keyin o'tgan davr mobaynida inqilobiy o'zgarishlar, til siyosatining tomoman yangilanishi o'zbek tili va nutqining rivojiga hal qiluvchi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hozirgi kunda o'zbek tilida elektronika, kibernetika, informatika va hisoblash matematikasi bo'yicha, tibbiyot, kimyo, yadro fizikasi, internet tarmoqlariga oid o'nlab o'quv qo'llanmalari nashr etilmoqda. Demak, o'zbek tilida ma'no shu sohalarda ilmiy nutq shakllanmoqda va rivojlanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda globallashuv jarayonida ijtimoiy nutq tabiati o'ziga bundan-buyon ham o'z tadqiqotchilarini tobora ko'proq tortishi qonuniy bir xoldir.

Zero, har bir halq, millat, hatto, ijtimoiy guruh yoki toifa, qolaversa halq, millat uchun odat tusiga kirgan qator urf-odatlar, rasm-rusmlar, ya'ni etnografik tomonlar bir-birlari bilan bog'langan bo'lib, u faqat o'z aksini nutqda, ya'ni muloqot jarayonida o'z aksini topadi.